

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI**

**ANDIJON QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI
QISHLOQ XO'JALIGIDA MENEJMENT FAKULTETI**

«T A S D I Q L A Y M A N»

Fakultet dekani, i.f.n.dots

Kamolov X _____

«__» _____ 2016 y.

«T A S D I Q L A Y M A N»

Kafedra mudiri, i.f.n.dots

Maxmudov O _____

«__» _____ 2016 y.

**QISHLOQ XO'JALIGIDA MENEJMENT
KAFEDRASI**

Fermer xo'jaliklarini yuritish va boshqarish ta'lim yo'nalishining bitiruvchisi

Xasanov Begzodning

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: Paxtaobod tumanidagi “Karim sayyod» fermer xo'jaligida bug'doy
yetishtirish iqtisodiy samaradorligini oshirish**

Bitiruv malakaviy
ishning raxbari, i.f.n, k/o'q.:

Z.Israilov

Bitiruv malakaviy
ishni bajaruvchi:

B.Xasanov

Andijon – 2016 yil

M U N D A R I J A	
<i>Kirish</i>	<i>3-7</i>
<i>1-Bob: Fermer xo'jaliklarida bug'doy yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirishning ilmiy nazariy asoslari</i>	
<i>1.1. Fermer xo'jaliklarida bug'doy yetishtirish samaradorligini oshirishning ahamiyati</i>	<i>8-16</i>
<i>1.2. Qishloq xo'jaligida bug'doy etishtirish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlari</i>	<i>17-23</i>
<i>2-Bob: Paxtaobod tumanidagi "Karim sayyod" fermer xo'jaligining umumiy tavsifi va iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili</i>	
<i>2.1. "Karim sayyod" fermer xo'jaligining umumiy tavsifi</i>	<i>24-30</i>
<i>2.2. Fermer xo'jaligining kuzgi bug'doy etishtirishning o'g'it me'lining ta'siri va uning iqtisodiy samaradorligi</i>	<i>31-42</i>
<i>3-Bob: Paxtaobod tumanidagi "Karim sayyod" fermer xo'jaligida bug'doy yetishtirish iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari</i>	
<i>3.1. Fermer xo'jaliklarida bug'doy yetishtirish agrotexnologiyasi</i>	<i>43-53</i>
<i>3.2. "Karim sayyod" fermer xo'jaligida bug'doy yetishtirishda moddiy xarajatlardan samarali foydalanish omillari</i>	<i>52-57</i>
<i>Xulosa va takliflar</i>	<i>58-59</i>
<i>Foydalanilgan adabiyotlar</i>	<i>60-63</i>

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakat aholisining iste'mol buyumlariga va oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish eng avvalo agrosanoat majmuasi va bu majmuaning asosi bo'lgan qishloq xo'jaligi tarmog'ining rivojlanish darajasiga bog'liq. Bozor iqtisodiyoti shart-sharoitlari, qishloq xo'jaligining iqtisodiyotimizdagi, hayotimizdagi o'rni bu sohani isloh qilishni yanada chuqurlashtirishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov o'zining "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" nomli asarida fermer xo'jaliklarining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o'rniga alohida e'tibor bilan qaralgan. Hozirgi vaqtda fermer xo'jaliklari qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etishning eng samarali shakli ekanini hayotning o'zi tasdiqlab bermoqda. YUrtimizda fermer xo'jaliklarini moddiy-texnik ta'minlash va moliyalash bo'yicha bozor iqtisodiyoti tamoyillariga to'la javob beradigan ishonchli tizim va mexanizmlar shakllantirildi va muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda"¹, - deb ko'rsatib o'tganlar.

Natijada, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini yanada oshirish prinsipial muhim ahamiyatga ega ekanini inobatga olib, fermer xo'jaliklariga ajratilayotgan yer maydonlarini optimallashtirish borasida maxsus qarorlar qabul qilinmoqda va regishli zarur ishlar amalga oshirilmoqda.

Dastlab zarar ko'rib ishlaydigan, rentabelligi past va istiqbolsiz shirkat xo'jaliklarini tugatish negizida tashkil etilgan xususiy fermer xo'jaliklari bugungi kunda haqli ravishda qishloqda yetakchi bo'g'inga-qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi asosiy kuchga aylandi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, dastlab zarar ko'rib ishlaydigan va istiqbolsiz shirkat xo'jaliklarini tugatish negizida tashkil etilgan fermer xo'jaliklari bugungi kunda agrar sohaning yetakchi bo'g'iniga – qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi asosiy kuchga aylanmoqda. Qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan tub

¹ Karimov I.A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. -T.:O'zbekiston, 2009, 21-b.

islohotlar samarasi o'laroq 2008-2015 yillarda fermer xo'jaliklarining paxta yetishtirishdagi ulushi 99,1 foizni, g'alla tayyorlashda esa 79,2 foizni tashkil etmoqda.

SHu bilan birga, faoliyat yuritayotgan aksariyat fermer xo'jalik larining ish tajribasi shundan dalolat beradiki, fermer xo'jaliklarini shakllantirishning dastlabki bosqichida ularga ajratib berilgan yer maydonlarining kamligi mahsulot ishlab chiqarish rentabelligining o'sishiga ko'p jihatdan to'sqinlik qilmoqda. Imkoniyati, kuch-quvvati kam bo'lgan fermer xo'jaliklari o'zini zarur texnika, aylanma mablag' bilan ta'minlash, kredit qobiliyatiga ega bo'lish, eng asosiysi, o'z xarajatlarini qoplash va foyda ko'rib ishlash, daromadni oshirishning ishonchli asosiga aylanolmasligini bugun hayotning o'zi ko'rsatmoqda.

SHundan kelib chiqqan holda, yer maydonlarini to'liq inventarizatsiyadan o'tkazish va fermer xo'jaliklari faoliyatini tanqidiy baholash asosida ularning yer maydonlarini optimallashtirish bo'yicha keng ko'lamli, shu bilan birga, puxta o'ylangan ishlar amalga oshirildi. Bunda fermer xo'jaliklarining qaysi sohaga ixtisoslashgani va mamlakatimizning turli hududlaridagi aholi zichligi alohida e'tiborga olindi.

2015 yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining 16,7 foizi qishloq xo'jaligi hissasiga to'g'ri keldi. Agrar tarmoq yurtimiz aholisining salmoqli qismini ish o'rinlari bilan ta'minlab kelmoqda. SHu jihatdan qishloq xo'jaligini rivojlantirish masalasi respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Ana shu ishlar natijasi o'laroq 2011 yil yakuniga ko'ra, respublikamiz dagi fermer xo'jaliklarining soni 215776 tadan 66134 taga yoki 69,4 foizga kamaytirildi, bunda bir fermer xo'jaligiga to'g'ri keladigan o'rtacha yer maydoni hajmini 27,4 gektardan 80,1 gektargacha ko'paytirishga erishildi. O'rtacha bir fermer xo'jaligiga to'g'ri keladigan yer maydonini tarmoqlar bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, bu ko'rsatkich paxtachilik va g'allachilikda 106,3 gektarga, sabzavotchilik va polizchilikda 23,5 gektarga, bog'dorchilik va uzumchilikda 13,1 gektarga, chorvachilikda 205 gektarga teng bo'ldi.

Qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish, uni dunyo talablari darajasida tashkil qilishni ta'minlash bu sohaga fan va texnika yutuqlarini keng joriy etishni taqozo etadi. Buning uchun mutaxassis kadrlar turli shakldagi fermer xo'jaliklar faoliyatini tashkil etish, rejalashtirish va boshqarishning ilg'or usullarini, iqtisodiy qonunlarning bozor iqtisodiyoti sharoitida amal qilish mexanizmlarini, fermer xo'jaligi faoliyatini tahlil qilish yo'llarini, xulosalar chiqarish va qarorlar qabul qilish usullarini bilishlari kerak.

Boshqarishning zamonaviy usullaridan foydalanib, uzoqni ko'ra bilish va xavf-xatarning oldini olish dasturlarini ishlab chiqishga yunaltilgan boshqarishning ahamiyati oshib bormoqda. Moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash maqsadida boshqarishning barcha bosqichlarida indikativ rejalashtirish usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu usul istiqbolni aniqlash, turli maqsadlarga mo'jallangan xar – xil dasturlarni ishlab chiqish, fermer xo'jaliklarining marketingga mo'jallangan faoliyatini aniqlashga yordam beradi.

Xavf-xatarni chuqur taxlil qilish, boshqaruv kadrlari mas'uliyatini oshirish va unga mos ravishda boshqarish ob'ekti va sub'ekti o'rtasidagi munosabatlarga oid sanktsiyalar va choralar majmuini boshqarishning barcha yunalishlarida, xususan, ishlab chiqarish, iqtisodiyot, innovatsiya jarayonini boshqarishda davlat boshqaruv idoralarining aralashuvi yoki aralashmasligi to'g'risida aniq va to'la ma'lumotga asoslangan qarorga ega bo'lmok lozim. Fermer xo'jaliklarini boshqarishning barcha bosqichlarida boshqaruv usullarini tashkil etish, axborot-maslahat xizmati bulimlari faoliyatini jadallashtirish zarur.

Boshqarishning o'ziga xos xususiyati shundaki, u bevosita kishilar mehnatini tashkil etish va ular faoliyatini maqsadga muvofiq amalga oshirishga yunaltilgan ko'p ukladli iqtisodiyotning shakllanishi va rivoj topishi bilan raxbar xodimlar vazifasi, mas'uliyat darajasi o'zgarib, vaziyatli yondashishga bo'lgan talab o'sib bormoqda. Fermer xo'jaliklari erishadigan yutuqlar dastlab uning faoliyatiga ta'sir etuvchi tashkiliy-iqtisodiy, ilmiy-texnik, demografik omillar va ijtimoiy muhitga moslashuviga bogliqdir. Eng kerakli vositalarni sotib olishga,

resurslarni taqsimlashga oqilona yondashish lozim. Buning uchun xo'jalik rahbariga tajribali texnologlar (hisobchi, agronom, agromuxandis, zootexnik va boshqalar) kerak.

Fermer xo'jaliklari qo'lga kiritadigan muvaffaqiyat ko'p jihatdan inson omiliga bogliq. Bozor iqtisodiyoti sharoitida fermer xo'jaligini boshqarishning o'ziga xos muxim xususiyati - uning ochiq ijtimoiy tizim sifatida namoyon bo'lishidadir. Boshqarish vazifalari shakli, usuli va ularni qo'llash jarayoni ob'ektiv sharoitga mos kelmog'i va doimo ishlab chiqarish munosabatlarining o'zgarishiga moslashib bormog'i lozim. U yoki bu boshqaruv tuzilmasini qabul qilishda fermer xo'jaligining tashkiliy tuzilishi, ishlab chiqarish xajmi va yiriklashtirish darajasi, o'ziga xos xususiyatlari, tarmoqlarning joylashishi, aholi punktlari soni va kattalik darajasi, xo'jalik yuritish usullari, kadrlar malakasini hisobga olish kerak. Xo'jalikning boshqaruvida moddiy xarajatlar samaradorligini oshirish eng muhim ahamiyatga ega. Chunki, moddiy xarajatlardan samarali foydalanish ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini ta'minlab beradi.

Yuqoridagi muammolarning ichida moddiy xarajatlarni boshqarishni takomillashtirish asosida unumdorlikni oshirish masalasi iqtisodiy samaradorlikga ta'sir qiluvchi omillarni qamrab oladi. Bu masala bo'yicha fermer xo'jaliklarini amaldagi faoliyatini tahlili asosida ilmiy jihatdan asoslangan va amaliy ahamiyatga molik bo'lgan fikr -mulohazalar, taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan bo'lib hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishininig maqsadi – Paxtaobod tumanidagi “Karim sayyod” fermer xo'jaligida bug'doy etishtirishning samaradorligini oshirish omillarini o'rganish va unga oid amaliy ahamiyatga ega taklif va xulosalar ishlab chiqishdan iborat.

Ko'zlangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olingan bo'lib, ular ishning maqsadini to'laligicha o'zida aks ettiradi:

- fermer xo'jaliklarida bug'doy yetishtirish samaradorligini oshirishning ahamiyati ochib berish;

- qishloq xo'jaligida bug'doy etishtirish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarini tavsiflab berish;

- Paxtaobod tumanidagi "Karim sayyod" fermer xo'jaligining tabiiy - iqtisodiy sharoitlarini tavsiflab berish;

- Paxtaobod tumanidagi "Karim sayyod" fermer xo'jaligida bug'doy yetishtirishning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini samaradorligini tahlil qilish;

- Paxtaobod tumanidagi "Karim sayyod" fermer ho'jaligida bug'doy yetishtirishda moddiy xarajatlardan samarali foydalanish omillari oid takliflar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishda keltirilgan fikr va mulohazalardan, qilingan xulosalar va takliflardan iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qishloq xo'jaligida faoliyat yuritayotgan fermer xo'jaliklarida bug'doy yetishtirishning samaradorligini oshirish omillarini aniqlash va ulardan samarali foydalanishga oid takliflardan ishlab chiqarish jarayonida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, asosiy qism, xulosa va takliflar xamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Bitiruv malakaviy ishi 63 betni tashkil etadi. Bitiruv malakaviy ishini yoritishda 9ta jadvaldan va 1ta rasmdan foydalanildi.

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslanib, bitiruv malakaviy ishini maqsadi, vazifalari va uning tarkibi aks etirilgan. 1-3 boblar bitiruv malakaviy ishini asosiy qismini tashkil etib, unda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida fermer xo'jaliklarida bug'doy yetishtirish samaradorligini oshirishning nazariy asoslari va ahamiyati Paxtaobod tumanidagi "Karim sayyod" fermer xo'jaligining iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil etish asosida o'rganildi. Bitiruv malakaviy ishining xulosa va takliflar qismida fermer xo'jaligida ishlab chiqarish omillaridan samarali foydalanish bo'yicha bir qator fikr va muloxazalar, takliflar ishlab chiqilgan. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida bitiruv malakaviy ishini bajarish davomida foydalanilgan adabiyotlar o'rin olgan.

1-Bob: Fermer xo'jaliklarida bug'doy yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirishning ilmiy nazariy asoslari

1.1. Fermer xo'jaliklarida bug'doy yetishtirish samaradorligini oshirishning ahamiyati

Mamlakatimizda donchilik asosiy oziqa mahsuloti bo'lganligi uchun bug'doy yetishtirishni keskin ko'paytirishga katta e'tibor berilmoqda. Bug'doy yetishtirish qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining eng muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Aholini non va non mahsulotlariga, chorvachilik tarmoqlarini omuxta oziqalarga bo'lgan talabini to'la qondirish imkonini beruvchi bug'doy ishlab chiqarishi davlat tomonidan qo'llab quvvatlanmoqda va bu sohani birinchi darajali vazifaga aylantirishga sabab bo'ldi.

O'zbekiston Respublika aholisining ko'paishi natijasida don mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish uchun respublikamizda har yili kamida 7 mln. tonna bug'doy yetishtirish zarur. Ushbu yetishtirilgan donlarning bir qismi iste'molga, bir qismi urug'likka, yana bir qismi chorva mollari uchun oziqaga hamda boshqa ehtiyojlarga sarflanib kelinmoqda.

O'zbekistonda don muammosini hal etish uchun yuqori hosil beradigan navlardan foydalanish, ularni o'z vaqtida ekishga, agrotexnika qoidalariga amal qilish, zamonaviy urug'chilik tizimini qo'llash, yerni o'g'itlash tizimiga e'tibor berish, hosilni o'z muddatlarida va nes-nobud qilmasdan o'rib-yig'ib olishga rioya qilishni taqazo etmoqda. Buning uchun fermer xo'jaliklariga to'la iqtisodiy erkinlik berish, donni davlat tomonidan sotib olish baholarini jahon tajribalaridan kelib chiqqan holda belgilash, don yetishtiruvchining zamon talabi darajasida faoliyat ko'rsatish imkoniyatlarini yaratish zarur.

YAKin yillar ichida davlatimizda yetishtirilayotgan bug'doy hisobiga ichki talabni qondirish (8050 ming tonna) va chetga don sotish imkoni qo'lga kiritildi. SHu bilan birgalikda bug'doy yetishtirishni ko'paytirish va sifatini yaxshilash bo'yicha o'z yechimini kutayotgan ayrim dolzarb muommalar mavjud. Bularga

bug'doyni o'z vaqtida ekib olish, o'g'itlash tizimi, suv bilan ta'minlash, hosilni yig'ishtirib olish va boshqalar. Ushbu muommalarni oqilona hal etish uchun fermerlarga bug'doy yetishtirishda erkinlik berish, zaruriy vositalar bilan ta'minlash, sotishdan oldin bug'doyni boshlangich qayta ishlashni tashkil etish imkonini berish, fermerlarni moddiy manfaatdorligini oshirishga e'tibor qaratish lozim.

Dala ekinlar balansida, bug'doy ekinlarni ulushi yuqori salmoqqa ega. Dunyo mamlakatlarida don ekinlaridan bug'doy, sholi, makkajo'huri, arpa, jo'huri, tariq, sulii, javdari ko'p tarqalgan. Donli ekinlardan bug'doy bilan sholini aholi ko'p iste'mol qiladi. Er yuzidagi aholining 70 foizi bug'doy, 30 foizi sholi mahsulotlarini iste'mol qiladi. Mamlakatimizning sug'oriladigan yerlarda boshoqli don ekinlarining o'rtacha hosildorligi 35-40 tsentnerni, makkajo'huri doni 40-50 tsentnerni, sholining 35-38 tsentnerni va bug'doyni 50-60 tsentnerni tashkil etadi. Kelgusida paxta maydonini birmuncha qisqarishi, don, sabzavot va meva yetishtirishni keskin oshirish ko'zda tutilmoqda.

Lalmikor yerlardan olinadigan bug'doy va arpa ekinlar hosildorligi o'rta hisobida 8-12 tsentnerni tashkil etmoqda. SHuni alohida ko'rsatib o'tish joizki, lalmikor yerlarda ekiladigan bug'doy va arpa ekinlarini kuzgi ekini bahorda ekiladiganiga nisbatan ancha yuqori hosil beradi.

Ma'lumki qattiq bug'doy donining bahosi yumshoq bug'doyga qaraganda yuqoridir (2014 yilli 1 klassdagi yumshoq bug'doyni erkin narhlari 571000 so'mni va qattiq bug'doy bo'yicha 685840 so'mni tashkil etgan). SHunday ekan, intensiv texnologiyani keng joriy etish asosida ko'plab qattiq bug'doy yetishtirish katta iqtisodiy ahamiyat kasb etib, xo'jalikning daromadini ko'paytirish, makaron, konditer va oziq-ovqat sanoatini sifatli xomashyo bilan ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, O'zbekistonning Janubiy, Janubiy - G'arbiy hamda markaziy hududlarida tabiiy iqlim sharoitida qattiq bug'doydan mo'l - ko'l va sifatli hosil olish imkoniyati juda katta. Bunda mahsus ekishga

tumanlashtirilgan yuqori sifatli serhosil navlarning sara urug'larini ekish va yuqori agrotexnikani qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Bug'doy yetishtirishni ko'paytirish va sifatini yaxshilashning asosiy yo'li - bu intensiv texnologiyadan foydalanish. Kuzgi ekinlar odatda kuzda ekiladi va hosili kelgusi yili yig'ishtirib olinadi. Kuzda ekiladigan ekinlar bir yillik bo'lib, yaxshi hosil beradi. Kuzgi ekinlarning bahorgi ekinlardan asosiy farqi – uning qishlovga moyilligidir. Kuzgi don urug'ini bahorda ekish yaxshi samara bermaydi, chunki urug' uzoq qishlash bosqichini boshidan kechira olmay qoladi, juda kichik ildiz tizimini hosil qiladi.

Kuzgi ekiladigan ekinlar ichida kuzgi bug'doy, kuzgi javdar va kuzgi arpani ulushi katta. Bug'doydan eng qimmatli oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlanadi. Bug'doy yetishtirishga shu boisdan ham dunyo dehqonchiligida katta o'rin berilgan. Bug'doy tarkibida inson organizmi uchun zarur bo'lgan ko'pgina foydali moddalar mavjud bo'lib, xalqaro standartlarga ko'ra bug'doy tarkibida 13,5 foizi oqsil t o'playdi. Bug'doy tarkibida oqsil ko'p bo'lishiga iqlim sharoiti, tuproqning tuzilmasi va mineral o'g'itlar katta ta'sir ko'rsatadi. Bug'doy yetishtirishning chorvachilikda ham ahamiyati katta. Bug'doy donining chorisidan va bug'doy somonidan chorva mollari uchun yaxshi ozuqa tayyorlanadi. SHuningdek bug'doy somonidan qog'oz mahsulotlari tayyorlanishi mumkin.

Kuzgi bug'doyning urug'i xarorat +1, +2° daraja bo'lganda unib chiqib boshlaydi va uning maysalari paydo bo'lishi uchun harorat +12 +15 ° darajada bo'lishi kerak.

Sug'oriladigan hududda kuzgi bug'doyning erta kuzda ekilgan urug'i 7-10 kunda, kech kuzda ekilgan urug'i esa 20-40 kunda ko'karib chiqadi. Kuzgi bug'doyning gullash davri 3-5 kun, donning hosil bo'lishi, uning to'lishishi va pishib yetilishi bug'doy naviga qarab o'rtacha 30 kun davom etadi. Kuzgi bug'doy gurkirab o'sayotgan, naychaga o'raladigan va boshoq chiqariladigan davrlarida ko'p namlik talab qiladi.

Bahorgi bug'doy dunyo dehqonchiligida juda ko'p tarqalgan qimmatbaho donli ekindir. U SHimoliy qutb doirasidan tortib, toki Afrika va Amerikaning eng

Janubiy chegaralarigacha joylashgan mamlakatlarda yetishtiriladi. Bahorgi bug'doy O'zbekistonning Samarqand, Toshkent, Sirdaryo, Buxoro va Surxandaryo viloyatlarining tog' bilan tutash hududlarida – to'lqinsimon, past-balandliklarda, lalmikor yerlarga ekiladi.

Bahorgi bug'doyning bo'yi past, boshog'i va doni maydaroq bo'lib, ancha sekin to'planadi va o'rta xisobida 1,2-1,5 metr boshqalaydigan poya hosil qiladi. Uning ildizi kam rivojlangan bo'ladi va shuning uchun unumdor tuproqqa talabchan. Erta ekilgan bahorgi bug'doy (fevral-mart) 15-20 kun ichida +1, +2° darajada unub chiqadi. Uning maysalarli 15-20 daraja issiqda yaxshi rivojlanadi. Bahorgi bug'doy kuzgiga qaraganda kech pishadi va shuning uchun qurg'oqchilikka duch keladi. Natijada hosil kamayadi va don puch bo'lib qolishi mumkin. SHu sabaga ko'ra qishloq xo'jaligida bug'doy yetishtirish va sifatini yaxshilash alohida ahamiyatga ega. Bug'doy yetishtirish va sifatini yaxshilashni to'g'ri tashkil etish va maqsadga muvofiq yuritish xo'jalikda qabul qilingan bug'doy yetishtirish tizimiga bog'liq bo'ladi.

Bug'doy yetishtirish tizimi deganda talab darajasidagi sifatli, arzon, raqobatga chidamli bug'doy yetishtirish maqsadida yerdan to'la foydalanish va tuproq unumdorligini oshirishga qaratilgan, o'zaro bog'liq hamda bir-birini to'ldiruvchi iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy va agrotexnik chora-tadbirlar yig'indisi tushuniladi.

Bug'doy yetishtirish tizimining asosini bug'doy yetishtirish texnologiyasi, ya'ni agrotexnikasi tashkil qiladi. Bu bug'doy yetishtirish texnologiyasi, ya'ni tuproq unumdorligini saqlash va oshirish sohasidagi agrotexnik tadbirlarning yig'indisidan iborat bo'lib, parvarish qilinayotgan bug'doy ekinini xususiyatiga mos kelishi, bug'doyni o'sishi va rivojlanishiga ko'maklashishi hamda pirovard natijada arzon va yuqori sifatli hosil yetishtirishni ta'minlash kerak. Har xil tabiiy-iqtisodiy va xo'jalik yuritish sharoitlariga muvofiq keladigan bug'doy yetishtirish tizimlari, ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishiga mos holda, ya'ni texnik va kimyoviy vositalar, ekinlarga ishlov berish texnologiyasi va ishlab chiqarishni tashkil etishning takomillashuviga qarab doim o'zgarib, yangilanib kelmoqda va takomillashib boraveradi.

Bug'doy yetishtirish tizimi to'g'risidagi ta'limot 200 yildan ortiq tarixga ega bo'lib, uning almashinib turishi qo'yidagi tartibda amalga oshirilgan:

- o'rmon va chakalakzorlarni kuydirib bug'doy yetishtirish;
- yerlarni uzoq muddatga tashlab qo'yish hisobiga bug'doy yetishtirish;
- shudgorlash orqali bug'doy yetishtirish;
- o't-dalali almashlab ekish yordamida bug'doy yetishtirish;
- qator oralariga ishlov berib, bug'doy yetishtirish.

Fan va texnikaning taraqqiy etishi hamda aholini tez sur'atlar bilan ko'payishi tufayli, aholining qishloq xo'jaligi mahsulotlariga, ayniqsa, bug'doy mahsulotlariga talab chorvachilikda va sanoatda talab ancha oshdi. Bu davrlarga kelib fanning rivojlanishi va xususan biologiya fani, o'simliklarning oziqlanish xususiyatlarini kashf etilishi, bug'doy yetishtirish tizimining tubdan o'zgarishiga olib keladi. Jumladan mamlakatimizda ham don mustaqilligiga jiddiy e'tibor qaratilishi bug'doy yetishtirishga bo'lgan e'tiborni keskin kuchaytirib yubordi.

O'zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi salmoqli o'rin tutadi. Mamlakatning yer fondi, mehnat resurslari, texnika va texnologik uskunalar va sug'orish tizimi hamda boshqa milliy boyliklarning katta qismi qishloq xo'jaligi ixtiyoriga berilgan. SHularni hisobga olib, respublika hukumati qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari faoliyatini bozor munosabatlariga moslashuvini tezlashtirish, ularning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlarni izchil amalga oshirmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2015 yilda qishloq xo'jaligi tarmoqlarida 3,8 mln.dan ortiq kishi ish bilan band bo'lgan. Qishloq xo'jaligining mamlakat YAIMdagi ulushi 2015 yilda 16,7 foizga teng bo'lgan. Bunday holat YAIM tarkibida iqtisodiyotning boshqa tarmoq va sohalarining ulushi oshishi bilan yuz bergan bo'lsada, amalda esa joriy narxlarda yalpi qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish 2015 yilda 2000 yilga nisbatan 18 martaga oshgan. Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish esa shu davrda 20,3 martaga ko'paygan. Bunday ijobiy o'zgarishlar aholini zarur oziq-ovqatlar bilan ta'minlashni yaxshilash, eksportga mahsulot chiqarishni ko'paytirish, qayti ishlovchi sanoat korxonalarini xom - ashyoga bo'lgan

talablarini qondirish bilan birga, qishloq aholisi daromadlarini ko'paytirish imkoniyatlarini ham yaratdi. Buni qishloq xo'jaligida band bo'lgan bitta ishchiga ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining 2015 yilda 2000 yilga nisbatan 17 martaga oshganligi ham tasdiqlaydi. SHu bilan bir vaqtda, xalqaro miqyosda yuz berayotgan keskinliklar va neft bozoridagi inqiroz ta'siriga qaramasdan, qishloq xo'jaligida yalpi mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sib borish tendentsiyasi kuzatilmoqda.

Ma'lumki, O'zbekiston qishloq xo'jaligida bosqichma-bosqich amalga oshirilgan islohotlar natijasida xususiy mulkchilik ustuvor bo'lgan ko'p ukladli agrar ishlab chiqarish tizimi shakllandi. Unda fermer va dehqon xo'jaliklari asosiy o'rin tutadi. Fermer xo'jaliklari qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 34, dehqon xo'jaliklari esa qariyb 64 foizni ishlab chiqaradi. Fermer xo'jaliklari mamlakatda ishlab chiqarilayotgan donning qariyb 81 foizini, paxta xom-ashyosining 99,5 foizini yetishtiradi. SHu bilan bir vaqtda, fermerlar katta hajmda kartoshka (35,4 foiz), sabzavot (35,4 foiz), poliz (50,5 foiz), meva (47,6 foiz), uzum (55,8 foiz) va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaradi. CHorva mahsulotlarining asosiy qismi dehqon xo'jaliklari ulushiga to'g'ri keladi. Mamlakatimizda qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish uchun tovar mahsulotlari yetishtiruvchilarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi joriy etilgan.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, nafaqat sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, balki ularni mineral o'g'itlar, texnika, urug'lik va boshqa ishlab chiqarish resurslaridan muntazam foydalanish imkoniyatini yaratdi. Bu esa, o'z navbatida, qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini yildan-yilga yuqori bo'lishini ta'minladi. Natijada yerdan olinadigan daromad oshishiga, mahsulot ishlab chiqarish rentabelligini o'sishiga erishildi. Ma'lumki, don mustaqilligini ta'minlash mamlakatimiz taraqqiyotining strategik maqsadlaridan biri hisoblanadi. Ushbu strategiyani amalga oshirish uchun respublikamizda keng ko'lamli chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Natijada bugun mamlakatimizda 8,0 mln. tn dan oshiq don, shu jumladan, 7,2 tn. bug'doy yetishtirilayapti. Bu ko'rsatkich 2000 yilga taqqoslaganda 4,2 mln. tonnaga ko'p.

YOki 2000 – 2015 yillar mobaynida mamlakatimizda yiliga don ishlab chiqarish o'rtacha 260 ming tonnadan oshib borgan. Don ekin maydoni esa, hammasi bo'lib shu davrda 65 ming gektarga kengaygan. Statistik ma'lumotlar tahliliga ko'ra, respublikada g'alla etishtirish hajmining oshib borishi asosan, uning hosildorligi oshishi hisobiga ta'minlanmoqda. Agar 2000 yilda g'alla ekinlarining o'rtacha hosildorligi 27,0 tsentnerni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2008-2015 yillarda o'rtacha 45,1 tsentnerga teng bo'lgan. G'alla ekinlari hosildorligining yuqori darajasi, g'allaning o'rtacha sotish bahosining nisbatan kam o'sishiga qaramasdan, bir gektar ekin maydonidan olinadigan daromad miqdorini yuqori sur'atda o'sishini ta'minladi. Tahlil qilinayotgan davrda o'rtacha 1 tn. g'alla tannarxi 185 ming so'mdan 300 ming so'mgacha ko'tarilgan, sotish bahosi esa 226 ming so'mdan 450 ming so'mga oshgan. Bu mamlakatimizda g'alla ishlab chiqarishning rentabellik darajasini 20 foizdan yuqori bo'lishini ta'minlamoqda. SHunday qilib, O'zbekiston davlat mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab qishloq xo'jaligida bosqichma-bosqich amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida quyidagilarga erishildi:

1. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining tarkibiy tuzilishi mamlakat aholisi, sanoat tarmoqlari hamda xalqaro bozor talablariga mos ravishda qayta o'zgartirildi, tubdan yangi agrar munosabatlar shakllantirildi;

2. Qishloqda mulkdorlar sinfining o'rta qatlami – tadbirkor va ishbilarmon fermerlar shakllandi, fermer xo'jaliklari mamlakat qishloq xo'jaligining asosiy bo'g'iniga aylandi. Ular strategik ahamiyatga molik bo'lgan g'alla, paxta va boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan resurslarga ega bo'ldi. SHu bilan qishloq xo'jaligida barqaror rivojlanishga erishish asosan ta'minlanadi. Davlat fermerlarni qo'llab-quvvatlash, ularning rivojini rag'batlantirishning moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarini joriy etdi. Paxta, g'alla va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish barqarorlashdi, bu qishloq aholisining daromadlari ko'payishi, turmush farovonligini oshishiga olib keldi;

4. Fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarilayotgan dehqonchilik hamda chorvachilik mahsulotlari samaradorligini oshishi, fermerlarga xizmat ko'rsatuvchi

infratuzilma tashkilotlarining kengayishi, istiqbolda ishlab chiqarish kooperatsiyasiga asoslangan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirishga keng yo'l ochib berdi. Bu – moliyaviy - iqtisodiy jihatdan baquvvat, barqaror rivojlanish manbasiga ega bo'lgan fermer xo'jaliklarini shakllanishini kafolatlaydi.

Fermer xo'jaliklari faoliyatini tashkil etish va boshqarish uchun ma'lum miqdorda moddiy, pul xamda mehnat sarf-xarajatlari amalga oshiriladi. Ishlab chiqarish xarajatlari ikki xil bo'ladi: ijtimoiy xarajatlar va korxona xarajatlari. Ishlab chiqarish xarajatlarining mamlakat miqyosidagi miqdori jami ijtimoiy xarajatlar deb ataladi. Ijtimoiy xarajatlar jamiyatda yaratilgan ijtimoiy mahsulot qiymati bilan tengdir. Ularning tarkibi quyidagilardan tashkil topadi:

1. Ishlab chiqarish vositalarida buyumlashgan xarajatlar. Ular o'tgan davr xarajatlari bo'lib, (S) xarfi bilan belgilanadi.

2. Jonli mehnat xarajatlari. Ular o'zi uchun yangi qiymatni yaratadi, (V) xarfi bilan belgilanadi.

3. Buyumlashgan va jonli mehnat uyg'unlashishi natijasida jamiyat uchun qo'shimcha qiymat yaratiladi. U (m) xarfi bilan belgilangan.

Ijtimoiy xarajatlar, ya'ni yalpi ijtimoiy mahsulot qiymatining umumiy ko'rinishi quyidagicha: $C + V + m$

Mamlakatning jami ijtimoiy xarajatlari–davlat hamda tarmoqlar, korxona va tashkilotlar miqyosidagi barcha xarajatlarning yig'indisidir.

Qishloq xo'jaligining ijtimoiy xarajatlari – qishloq xo'jaligida faoliyat yuritayotgan qishloq xo'jaligi korxonalari va tashkilotlarining xarajatlari yig'indisidir. Qishloq xo'jalik korxonalari xam turli xildagi talablarni qondirish maqsadida mahsulotlar ishlab chiqarish, turli xizmatlarni bajarish uchun moddiy, pul va mehnat xarajatlarini amalga oshiradilar. YUqorida qayd etganimizdek, korxona miqyosidagi moddiy va buyumlashgan xarajatlar “S” xarfi bilan, mehnat xarajatlari, ish xaqi shaklida bo'lib, “V” xarfi bilan belgilanadi. Korxonalar xarajatlarining umumiy ko'rinishi quyidagicha: $C + V$ - bu umumiy xarajat xisoblanadi.

Qishloq xo'jaligida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar turli xildagi mahsulotlarni yetishtirish, xizmat va ishlarni bajarish uchun moddiy va buyumlashgan ko'rinishdagi quyidagi xarajatlarni amalga oshiradilar: urug'lik, ko'chat, mineral o'g'itlar, maxalliy o'g'itlar, kimyoviy vositalar, yoqilg'i, yog'lovchi materiallar, ozuqa va yem - xashaklar, asosiy vositalarning eskirish qiymati, ishchi xizmatchilarning mehnatlariga to'langan xaq, soliqlar, kreditlar uchun to'lovlar, mahsulotlarni sotish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar, kam qiymatli, tez eskiruvchan materiallar va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatimiz qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonida tarmoqda faoliyat yuritayotgan xar bir xo'jalik yurituvchi sub'ektlar xarajatlardan oqilona foydalanish asosida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hamda bajarilayotgan ish va xizmatlar tannarxini pasaytirish bo'yicha chora tadbirlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda yuqorida keltirilgan nazariy bilimlarga ega bo'lishi talab etiladi. Bug'doy maxsulotlarga bo'lgan talabni qondirish uchun bugdoy xosildorligini 70-80 tsentnerga yetkazish, sifatini va tozaligini yaxshilash hamda tog' oldi va lalmi yerlar maydonida bahorgi qattiq bug'doy ekishni ko'paytirish zarur.

YUqoridagi vazifalarni bajarish uchun zamonaviy urug'chilik tizimiga, hosil sifatini oshirish imkonini beruvchi agrotexnik qoidalariga, hosilni o'z vaqtida yig'ib olishga va sotishdan oldin boshlangich kayta ishlash (kuritish, choridan tozalash) tadbirlariga amal qilish kerak. SHu bilan birgalikda bug'doy yetishtiruvchilarga to'la iqtisodiy mustaqillik berish, bug'doy xarid baholarini tartibga solish, zarar ko'rmasdan faoliyat ko'rsatish sharoitlarini yaratib berish zarur.

Mamlakatimizda yaqin kelajakda o'rtacha bug'doy xosildorligini 65-70 tsentnerga va yalpi xosilni 9 mln tonnaga yetkazish belgilangan. Bu esa bug'doy yetishtirish samaradorligini o'rganish fermer xo'jaliklarida unumdorlik masalalariga yangicha yondashuvlar ishlab chiqishni taqozo etadi.

1.2. Qishloq xo'jaligida bug'doy etishtirish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar

Iqtisodiyot fani ishlab chiqarishni rivojlantirishning ikki yo'lini bir-biridan farqlaydi. Birinchi yo'l ekstensiv rivojlanish yo'li bo'lib, mahsulotlar ishlab chiqarish hajmining ko'payishi ishlab chiqarish jarayoniga yangi resurslar (er, chorva mollarining soni va h.k.) jalb qilish hisobiga ta'minlanadi. Bunda mahsulot hajmining ko'payishi asosan ishlab chiqarish omillarining ko'payishi hisobiga yuz beradi. Masalan, o'tgan yili xo'jalik 500gektar yerga don ekib, har gektaridan 40 tsentnerdan, jami 2000 tonna yalpi hosil olgan edi. Joriy yilda esa donli ekinlardan 3000 tonna yalpi hosil olindi. Shu 3000 tonna hosilni olish uchun jami o'tgan yildagidan 100 gektar ko'p yoki 600 gektarga don ekildi. Hosildorlik esa joriy yilda ham 40 tsentinerni tashkil qildi. Mahsulot ishlab chiqarishni bu yo'l bilan ko'paytirish ekstensiv yo'l hisoblanadi. Albatta, 600 gektar yer 500 gektar yerga nisbatan ko'p urug'lik, ko'p mehnat resurslari va boshqa xarajatlar sarflanishini taqozo etadi. Lekin bu xarajatlar bir gektar yerga oldingi yil darajasida qolgan.

Qishloq xo'jaligida mehnat tarmoqning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi xususiyatlarga ega:

- mehnat va uning samarasi tabiiy sharoit bilan bog'liqligi;
- mehnatdan foydalanishga ishlab chiqarish mavsumiyligining ta'sir qilishi;
- qishloq xo'jaligidagi mehnatning o'simliklar hamda tirik mavjudotlar (hayvonlar, o'simliklar) bilan uzviy bog'langanligi;
- qishloqdagi mehnat saviyasi va bilim darajasining nisbatan pastligi;
- o'simlikshunoslik va chorvachilik tarmoqlarida ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilganlik va mexanizatsiyalashtirilganlik darajasi pastligi;
- tarmoqda tor doiradagi ixtisoslashishning kamligi;
- qishloq xo'jaligida sarflanayotgan mehnat tarkibida ayollar va yoshlar mehnati salmog'i (hissasi) ning ko'pligi;

- qishloq xo'jaligida mehnatga to'lanayotgan haq va uning ijtimoiy himoyalaniishi boshqa tarmoqlardagiga nisbatan pastligi va boshqalar.

Ta'kidlangan xususiyatlar tarmoqda sarflanadigan mehnatning miqdoriga, sifatiga va samarasiga bevosita ta'sir etadi. Turlicha tabiiy sharoitda, har hil darajada ixtisoslashgan xo'jaliklarda bir hil ish jarayonlarini amalga oshirish uchun har hil mikdorda bir turdagi mehnat sarflanadi, uning samaradorligi ham bir-biridan farq qiladi. Kech kuz, qish va erta bahorda mehnat sarfi keskin kamayib, hosilni yig'ib olishda unga bo'lgan talab ortadi. SHu davrda mavsumiy ishchilar shartnoma asosida jalb etiladi. O'simlikshunoslik va chorvachilikda bajariladigan ishlarning ko'pchiligi yuqori darajada bilim va malaka talab etmaydi. Qishloq xo'jaligidagi mehnat tarkibida ayollar mehnatining salmog'i hozirgi davrda ancha yuqori. SHuning uchun ham tarmoqda mehnatga to'lanayotgan hak kamroq. Tarmoqning yangi unumli texnikalar bilan talab darajasida ta'minlanmaganligi ayrim ish jarayonlarini (sug'orish, chikanka qilish, hosilni yig'ib olish, chorva xayvonlarini oziklantirish, sog'ish...) to'liq mexanizatsiyalashtirish imkonini bermaydi, natijada oddiy jonli mehnat xarajatlari ortadi. Qishloq xo'jaligida mehnat jarayonini amalga oshirishda uning samarali bo'lishini ta'minlash uchun barcha xususiyatlarni e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

Mehnat unumdorligi deganda, foydalanilayotgan texnikalar, texnologiyalar yordamida bir birlikdagi mahsulotni yetishtirish, ishni bajarish uchun sarflanadigan vaqtning miqdorini nazarda tutish lozim. Bu «Mehnatni tejash» iqtisodiy qonunining amal qilishidan dalolat beradi. Mehnat unumdorligining amaliyotdagi tushunchasi ham mavjud. ya'ni, sarflanayotgan bir birlikdagi vaqt ichida yaratilgan qiymat yoki ishlab chiqarilgan mahsulot, bajarilgan ish mehnatning unumdorlik darajasini ifodalaydi. Mehnat unumdorligi to'g'risidagi bu tushunchalar bir-birini inkor etmaydi, aksincha to'ldiradi. Qishloq xo'jaligidagi mehnat ongli, maqsadga yo'naltirilgan bo'lsa, uning unumdorligi yuqori bo'ladi. Bu esa tarmoqning rivojlanishini ta'minlaydi.

Ishlab chiqarish resurslarini ko'proq jalb etish natijasida rivojlantirishga ekstensiv rivojlanish yo'li deb baho berish qabul qilingan. Bu yo'lning

imkoniyatlari cheklangan. Chunki barcha ishlab chiqarish resurslari – yer, suv, mehnat resurslari, texnika, xomashyolar, barcha barchasi cheklangan.

Darhaqiqat, har bir davlatning hududi, yer resurslari cheklangan bo'lib, uni xohlagancha ko'paytirish mumkin emas. Resurslar cheklangan holda insonlarning, ishlab chiqarish talab va ehtiyojlari o'sib boradi. Bunday holda ishlab chiqarishni rivojlantirishning boshqa yo'lini topish zarurati tug'iladi. Bu yo'l – intensiv rivojlanish yo'lidir.

Qishloq xo'jaligining intensiv rivojlanishi – bir gektar yer yoki bir bosh chorva moliga sarflanayotgan mehnat va moddiy sarflarni oshirish evaziga mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirishdir. yer birligi yoki bir bosh chorva moliga sarflanadigan mehnat va moddiy xarajatlar samarasiz o'sishi mumkin emas. Intensiv rivojlanishning iqtisodiy mohiyati shundaki, sarflanayotgan mehnat va moddiy xarajatlarning o'sishi nisbatan olinayotgan mahsulot miqdori tezroq o'sishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning bir birligi tannarxi nisbatan kamayib borishi lozim. Masalan, o'tgan yili yetishtirilayotgan 2000 tonna donning hosildorligi 40 tsentnerni har bir tsentneri tannarxi 500 so'mni tashkil etdi deb faraz qilaylik. Joriy yilda don ekilgan har bir gektar maydonga mehnat va moddiy sarflarni 10 foizga ko'paytirdik. Agarda hosildorlik ham 10 foizga yoki undan kamga oshsa, intensiv rivojlanishning samarasi 0 ga teng bo'lar edi. Bu holda intensiv rivojlanishning iqtisodiy mohiyatini ko'rsatish imkoni yo'q. Agarda, sarflangan mehnat va moddiy xarajatlar o'sishiga nisbatan hosildorlik tezroq o'sgan bo'lsa, intensivlashtirishning iqtisodiy mohiyati ochilgan bo'lar edi. Masalan, xarajatlar 10 foizga oshgan holda hosildorlik 12 foizga oshsa, demak, mahsulot birligining tannarxi nisbatan pasaygan bo'ladi. Mana shu tarzda rivojlanish yo'li intensiv rivojlanish yo'li deb nomlanadi. Intensiv rivojlanish yo'lining imkoniyatlari cheklanmagan bo'lib, resurslar tanqisligi yoki cheklanganligi sharoitida juda muhim ahamiyatga ega. SHu sababli ham mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarini, jumladan, qishloq xo'jaligini intensivlashtirish har bir davlat iqtisodiy siyosatining asosini tashkil etadi.

Fan, texnika taraqqiyoti va intensivlashtirish. Intensivlashtirish o'z mohiyatiga ko'ra, qishloq xo'jaligida ma'lum chegaralarga ega. Masalan, qishloq xo'jaligi ekinlarini parvarishlashda har bir texnologik jarayon uchun optimal agrotexnika muddatlari mavjud. yer haydash uchun yer haydovchi traktor, ekish uchun ma'lum miqdordagi ekish agregati, hosilni o'rish uchun (donchilikda) kombaynlar bo'lishi kerak.

Har bir ekin turi uchun zarur mineral o'g'it miqdori belgilangan. Agarda me'yordan ortiq mineral o'g'it solinadigan bo'lsa, ekining hosildorligiga salbiy ta'sir etib, uning kamayishiga ham olib kelishi mumkin. Bu, o'z navbatida, intensivlashtirishning ma'lum darajada cheklanganligidan dalolat beradi. Bu masalaning yechimi fan – texnika taraqqiyotidadir. Fan – texnika taraqqiyoti deganda fan va texnikaning barqaror rivojlanib borishi tushiniladi. Boshqacha qilib aytganda, fan – texnika taraqqiyoti – mavjud bilimlar natijasida ularning boyitilishi va boyitilgan bilim asosida yangi unimli texnikalar, progressiv texnologiyalarning yaratilishidir. Oldingisiga qaraganda unimli texnika va texnologiyalar yaratilishi natijasidagina intensivlashtirish rivojlantirilishi mumkin.

Fanning rivojlanishi natijasida o'simlik va chorva hayvonlarining yangidan – yangi xususiyatlari ochilmoqda. Natijada, ushbu yangi xususiyatlar talabidan kelib chiqqan holda texnologiyalar o'zgaradi va mahsulot ishlab chiqarish ko'payadi. Bu borada fan – texnika taraqqiyotining ishlab chiqarishni intensivlashtirishga ta'siri cheklanmagan. Ishlab chiqarishga qishloq xo'jaligi ekinlari yangi navlarining joriy etilishi bilan intensivlashtirish yanada kuchayadi. Masalan, hozirda paxta va bug'doyning serhosil navlari yaratilmoqda. Bu, o'z navbatida, qishloq xo'jaligini yangi bosqichga ko'taradi. Ishlab chiqarishni intensivlashtirish ishlab chiqarish kontsentratsiyasini oshiradi, korxonalarda ishlab chiqarishni ixtisoslashtirishni kuchaytiradi. Ixtisoslashuvning kuchayishi ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashish jarayonini oshiradi, mahsulotlar birligi tannarxining nisbatan oshib ketmasligini ta'minlaydi. Bu esa, ishlab chiqarishning iqtisodiy samarasi oshishiga olib keluvchi asosiy omillardan biridir.

Qishloq xo'jaligining intensivlashtirish darajasi va iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar. Iqtisodiyot fani intensivlashtirish ko'rsatkichlarini ikkiga bo'lib o'rganadi. Birinchi guruhga intensivlashtirish darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar kiritiladi. Bu ko'rsatkichlar intensivlashtirishning bir tomonini ifoda etadi. YA'ni, intensivlashtirish darajasi ma'lum ekin turi, chorva hayvonlari uchun tanlangan texnologiya bo'yicha mehnat va moddiy xarajatlar sarfi oshirilishini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkichlarda bir gektar ekin maydoniga, bir bosh chorva hayvoniga sarflanayotgan resurslarning miqdori ifoda etiladi. Bularga quydagilar kiradi;

1. Ekin maydoni birligiga to'g'ri keladigan asosiy aktivlar va aylanma mablag'larning miqdori. Bu xo'jalikda mavjud asosiy aktivlar va aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qiymatini yer (ekin maydoni, haydaladigan yerlar yoki qishloq xo'jaligi yerlari) maydoniga bo'lish bilan aniqlanadi.

2. Bir birlik yer maydoniga to'g'ri keladigan joriy xarajatlar miqdori.

3. Bir birlik yer maydoniga to'g'ri keladigan jonli va buyumlashgan mehnatning umumiy miqdori.

4. Bir birlik yerga to'g'ri keladigan energetik quvvatlar miqdori.

5. Har 100 gektar yerga to'g'ri keladigan chorva mollarining bosh soni.

Mana shu ko'rsatkichlar tizimi intensivlashtirishning darajasini ifoda etadi.

Intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar uning iqtisodiy mohiyatini ochib beradi. Ishlab chiqarishni intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligi bir qancha ko'rsatkichlar yordamida aniqlanadi. Ularga quydagilar kiradi.

1. Hosildorlik, ts/ga.

2. Er maydoni birligidan olinayotgan yalpi mahsulot.

3. Bir birlik yer maydonidan olinadigan foyda miqdori.

4. Mehnat unumdorligining oshishi.

5. Mahsulot birligi tannarxining nisbatan pasayishi.

6. Rentabellikning o'sishi.

7. Fond qiymatining oshishi.

Mana shu ko'satkichlar tizimi yordamida intensivlashtirishning samaradorligi aniqlanadi. Qishloq xo'jaligini intensivlashtirishning asosiy yo'nalishlari. Ishlab chiqarishni intensivlashtirish doimiy rivojlanishni talab etadi. Qishloq xo'jaligida intensivlashtirish quydagi asosiy yo'nalishlarda olib boriladi: kimyolashtirish – qishloq xo'jaligini intensivlashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Samarali mineral o'g'itlarni ishlab chiqrish, urug'larga kimyoviy ishlov berish, turli kasalliklar va zararkunandalarga qarshi kurashish va shu kabilar haqida gap borganda kimyolashtirishning juda katta ahamiyatga ega ekanligini bilamiz. Kimyolashtirishsiz qishloq xo'jaligida sezilarli muvaffaqiyatga erishish mumkin emas.

Qishloq xo'jaligini intensivlashtirishning boshqa bir yo'nalishi – ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirishdir. Mehnat unimdorligini oshirish, ishlab chiqarishning samarali faoliyat ko'rsatishi ish jarayonlarini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish darajasiga bog'liq. Og'ir ish jarayonlarini mashinalar yordamida bajarish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki og'ir ishlardan kishilarni ozod qilish, ijtimoiy masalani ham ma'lum darajada ijobiy hal etishga olib keladi.

Qishloq xo'jaligini intensivlashtirishning boshqa bir yo'nalishi ishlab chiqarishni elektrlashtirishdir. Elektr imkoniyatlaridan foydalanmasdan ishlab chiqarishning bugingi rivojini ko'rish mumkin emas. Kadr malakasini oshirish ham intensivlashtirish yo'nalishlaridan biridir. Kadrlarning malakasini, bilimini oshirish ham eng kerakli yo'nalishlar sifatida yuzaga chiqadi.

Xulosa qilib aytganda, yetishtiriladigan mahsulot miqdori va sifatini oshirishga, mehnat unimdorligi oshishiga ta'sir etuvchi barcha fan, texnika va texnologiya yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish omillar e'tibordan qolmasligi va o'z o'rnida ishlatilishi lozim. Fan – texnika taraqqiyoti qishloq xo'jaligining intensiv rivojlanishini ta'minlab beradi. Rivojlanish ekstensiv va intensiv yo'llar bilan amalga oshadi. Ekstensiv rivojlanish yo'lida ishlab chiqarishning o'sishi qo'shimcha resurslarni ishlab chiqarishga jalb etish evaziga olib boriladi. Bunda yer maydonlari, mehnat resurslari, chorva mollarining bosh soni ko'paytirilishi

evaziga mahsulot yetishtirish hajman o'stiriladi. Bu yo'lning imkoniyatlari cheklangan. Chunki yer, mehnat va boshqa resurslar cheklangan. SHu sababli intensiv rivojlantirish eng asosiy yo'l hisoblanadi. Ishlab chiqarishni intensiv rivojlantirish deganda bir birlik yer maydoniga va bir bosh chorva moliga sarflanadigan moddiy va mehnat resurslarini ko'proq sarflash evaziga olinadigan mahsulotni ko'paytirish tushiniladi. Bu yo'l bilan rivojlanishning imkoniyatlari cheklangan. Intensivlashtirishning darajasi iqtisodiy samaradorlikning sur'atlarini aniqlab beradi. Intensivlashtirishning asosiy yo'nalishlari: qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini kimyolashtirish, mexanizatsiya darajasini oshirish va avtomatlashtirish, elektrlashtirish va fan yutuqlarini ishlab chiqarishga yanada keng joriy etishdir.

2-Bob: Paxtaobod tumanidagi “Karim sayyod” fermer xo’jaligining umumiy tavsifi va iqtisodiy ko’rsatkichlari tahlili

2.1. “Karim sayyod” fermer xo’jaligining umumiy tavsifi

Paxtaobod tumanining Ozod massivdagi «Karimsayyod» fermer ho’jaligiga 1979 yilda tug’ilgan Qo’ldoshev Akmaljon boshchilik qilib kelmoqda. U oliy ma’lumotli muhandis bo’lib, Andijon qishloq xo’jalik institutini “Qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash” fakultetini 2004 yili tugatgan. Bir necha yillar davomida sobiq Ozod jamoa xo’jaligida mexanik injener lavozimida ishlagan. Fermer xo’jaligi 1997 yili tashkil qilingan. Fermer xo’jaligi G’arb tomondan “Temirov Saydullo” fermer xo’jaligi, shimol tomondan “Xojimatov Sherzodbek”, janub tomondan “Begzod Ar Razzoq” fermer xo’jaliklari va sharq tomonda “Umid Razzoq” fermer xo’jaligi bilan chegaradosh. Xo’jalik Kuyganyor – Madaniyat magistral yo’liga yaqin masofada joylashgan. Fermer xo’jaligi asosan oqava suvlardan o’zining ehtiyojini qondiradi, “Ashurali mirob” SFUga a’zo. Xo’jalik viloyat markazidan 37km, tuman markazidan 9km uzoqlikdagi masofada joylashgan. Xo’jalik OAJ MTPdan 10km, O’zkiymyodan 10km, neftbazadan 10km, don qabul qilish shaxobchasidan 10km, paxta tozalash zavodidan 10km, pillakashlik korxonasidan 10km hamda Tentaksoy temir yo’l stantsiyasidan 10 km uzoqlikda joylashgan. Xo’jalik Paxtaobod tuman agrobankida hisob raqamiga ega bo’lib u: 202080000090426546880001, MFO 00031, IFN 204014574. Xo’jalik yuqorida nomlari ko’rsatilgan fermer xo’jaliklariga xizmat ko’rsatuvchi barcha tashkilotlar bilan o’zaro hamkorlik aloqalarini o’rnatgan.

Xo’jalikning jami ekin ekadigan maydoni 108ga bo’lib, yerlari bo’z tuproqli, 9 konturga bo’lingan. Shundan 65ga yerga paxta va 40ga yerga bug’doy ekiladi. Xo’jalikda paxtaning “Andijon 37” va bug’doyning “Chillaki super elita” navlarini ekadi. 2015 yil yakuniga ko’ra xo’jalik debitor va kreditor qarzlariga ega bo’lmagan. Xo’jalik bir yilda paxtaga 35 tonna mineral o’g’it solgan va uning 17t azot, 11t fosfor va 7t kaliy tashkil etgan. Bug’doyga 19t o’g’it solingan va uning 13t azot, 5t fosfor va 1t kaliy. Paxta ekini bir yilda 4 marta, bug’doy 4 marta

o'g'itlanadi. Paxta 4 marta, bug'doy 4 marta sug'oriladi.

Ozod massivdagi «Karimsayyod» fermer xo'jaligining ekin maydonlari tarkibi quyidagi 1-jadvalda berilgan. Xo'jalikning ixtiyorida bo'lgan jami yerlarning hajmi 108 ga bo'lib, shundan 105,7 ga ekin maydoniga to'g'ri keladi. Uning 0,2 ga ko'p yillik daraxtlar, 1,2 ga yer ariqlar, yo'llarga 1,4, imoratga 0,3ga yer ajratilgan. «Karimsayyod» fermer xo'jaligining yerlarini e'tiborli jihati shuki, konturlarning hajmida bir tekislik yo'q. Konturlarning eng kichigi 2ga bo'lsa, eng kattasi 6ga ga teng. O'rtacha 4 –5 ga konturlar ham mavjud. Boshqa bir e'tibrga loyiq jihati, fermer xo'jaligida ichki yo'llarning ulushi katta. (1-jadval).

1-jadval

«Karimsayyod» fermer xo'jaligiga ijaraga berilgan yer uchastkalari tarkibi to'g'risida ma'lumot (gektar)

Kontur raqami	Jami yer maydoni	Ekin maydoni	SHu jumladan:				Er maydonin ing bonitet balli
			Ko'p yillik daraxtlar	Arik	Yo'l	Imorat	
1	12	11,9					69
2	13	12,4					81
3	13	12,5					81
4	12	11,4					73
5	11	11,0					75
6	12	11,4					77
7	11	10,8					61
8	11	10,8					71
9	13	12,8					71
Jami	108	105	0,2	1,2	1,3	0,3	71

2-jadvalda Karim sayod fermer xo'jaligining ishchi hodimlari tarkibi keltirilgan. Xo'jalikda ishchi hodimlar soni 40tadan 42taga etgan. Bunda bug'doy etishtirishga ajratilgan ishchilar soni o'smagan holda paxtachilikda band hodimlar soni 32tadan 34taga etgan. Xo'jalikda bug'doy etishtirish bilan jami bo'lib 8ta ishchi shug'ullanadi. Ulardan bittasi rahbar, yani ish yurituvchi, qolgan 7kishi ishchi. Ularning ma'lumoti o'rta mahsus bo'lib, asosan mahalladosh qo'shnilar

bo'lib hisoblanishadi. Xo'jalikdagi ishchilar soni belgilangan me'yorlarga to'la mos keladi. (2-jadval).

2-jadval

Karim Sayod fermer xo'jaligining a'zolari

№	F.I.SH	Tug'ilgan yili	Ma'liloti	Lavozimi
1	Qoldashev Akmaljon	1979 yil	Oliy	Raxbar
2	Qoldashev Abrorbek	1982 yil	Oliy	Ishchi
3	Ibragimov Boburbek	1985 yil	Orta	Ishchi
4	Parpiyev Ilyosbek	1968 yil	Orta	Ishchi
5	Axmedov Doniyor	1971 yil	Orta	Ishchi
6	Baratov Doniyorbek	1977 yil	Orta	Ishchi
7	Ikromov Rasul	1978 yil	Orta	Ishchi
8	Hayitov Nozimjon	1980 yil	Orta	Ishchi
9	Ahmadjonov Murod	1983 yil	O'rta	Ishchi

3 – jadvalda Karimsayod fermer xo'jaligining asosiy texnik vositalari aks ettirilgan. Xo'jalikda 1ta TL haydov traktori 2014 yili 3 yil muddatga Bank krediti evaziga 92000000 so'mga sotib olingan, shuningdek , 1ta TTZ 80 traktori, 1ta pritsep, 1ta seyalka, va boshqa qishloq xo'jalik texnikasi mavjud. Ularning hammasi ishga yaroqli. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, xo'jalikda texnika ta'minoti juda yuqori darajada va bu ishlab chiqarish jarayonini intensivlashtirishga yaxshi imkoniyat yaratgan.

Karimsayod fermer xo'jaligida asosiy vositalar oxirgi yillarda k'opayib borgan. Jumladan, asosiy vositalarning umumiy qiymati 130 mln 500 ming so'mni tashkil etadi. Yer hajmiga nisbatan olganda texnika ta'minoti normal holatda va xo'jalik ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar qidirib topishi mumkin. Ya'ni, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash darajasini oshirish evaziga ham unumdorlik darajasini ko'tarish mumkin. Bu 3-jadval ma'lumotlarida ham aks etgan. (3-jadval).

3 – jadval

Paxtaobod tumanidagi «Karim Sayod» fermer xo'jaligining asosiy vositalari

№	Texnika turi	Soni	Qoldiq qiymati	Holati
1	TL-100 er haydov	1ta	920000000	Yaroqli
2	TTZ-80-11 kultivator	1ta	20000000 so'm	Yaroqli
3	Omoch	1ta	2000000 so'm	Yaroqli
4	CHizel	1ta	1500000 so'm	Yaroqli
5	Seyalka	1ta	5000000 so'm	Yaroqli
6	Prittsep	1ta	10000000 so'm	Yaroqli
	Jami texnikalar va tirkamalar soni:	6ta	130500000 so'm	

4-jadvalda Paxtaobod tumani Ozod massividagi «Karimsayyod» fermer xo'jaligining ekin maydoni va uning tarkibi aks ettirilgan. Jadval ma'lumotlaridan kelib chiqqan holda xo'jalikning umumiy samaradorlik holatiga baho berish mumkin.

4-jadval

Paxtaobod tumanidagi «Karimsayyod» fermer xo'jaligining ekin maydoni va uning tarkibi

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2013		2014		2015		2015 yilda 2013 yilga nisbatan %
			Mik-dori	%	Mik-dori	%	Mik-dori	%	
1.	Jami ekin maydoni	ga	105	100	105	100	105	100	100
	Shundan: paxta	ga	65	61,9	65	61,9	63,1	60,0	97
	Hosildorlik	ts\ga	25,1		38,5		41,0		163
	Yalpi xosil	ts	1631,5		2502,5		2587,1		158
2	Don	ga	40	38,1	40	38,1	41,9	40	105
	Xosildorlik	ts\ga	47,4		48,0		54,9		116
	Yalpi hosil	ts	1896		1920		2300		121
3	Xodimlar soni	nafar	40	100	42	100	42	100	105
	Shundan:								
	Paxtachilikda	nafar	32	80	34	81	34	81	106
	Donchilikda	nafar	8	20	8	19	8	19	100
4	Erni banitet balli	ball	71		71		71		71

4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, fermer xo'jaligi dehqonchilikka ixtisoslashtirilgan bo'lib, xo'jalik yerlariga asosan paxta, don va takroriy ekinlar ekiladi. Fermer xo'jaligining ekin maydoni tahlil etilayotgan 2013 -2015 yillarda deyarli o'zgarmagan. Xo'jalikdagi paxta maydonlari 65 gektardan 63, 1 ga gacha qisqargan xolos. Bug'doy ekilgan maydon esa 40 ga.dan 41,9 ga gacha ortgan. Qolgan yerga pilla qurti boqish uchun tutzor qilingan va boshqa maqsadlarda foydalanilgan. Jami ekin maydoniga nisbatan paxta maydonlarining ulushi oxirgi uch yilda o'rtacha 60,0 foiz, g'alla maydonlarining ulushi aksincha 40,0 foizligicha qolgan. Shu bilan bir vaqtda, paxta hosildorligi 25 tsentnerdan 41 tsentnergacha o'sgan, bug'doy hosildorligi 47,4 tsentnerdan 54,9 tsentnergacha ko'tarilgan. Hosildorlikni o'sishi asosan paxta ekinida yuz bergan va u bug'doyga nisbatan ancha yuqori.

Xo'jalikda paxta etishtirishni o'sish sur'atlari alohida e'tiborga loyiq. Chunki, hosildorlik xo'jalikda 25 ts/ga dan 41ts/ga ko'tarilgan. 41 tsentner hosildorlik bugungi kun fermer xo'jaligi uchun juda ajoyib ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi. Bu borada xo'jalik nafaqat viloyatning, balki respublikamizning etakchi xo'jaliklari qatoriga qo'shilib olgan.

Bug'doy yetishtirish iqtisodiy samaradorligi fermer xo'jaligida absolyut miqdorlarda ko'paygan holda, nisbiy miqdorlardagi o'sishidagi farq unchalik katta emas. Bu farqlarni o'zaro mutanosibligini o'rganib chiqish va ularning bir – biriga bog'liqligini asoslab berish lozim. Buning uchun ishlab chiqarish xarajatlari ko'rsatkichlarni taqqoslagan holda ko'rib chiqamiz.

Fermer xo'jaligida hosildorlik 47,4 ts.dan 54,9 ts.gacha ko'tarilgan. Bu uch yil mobaynida 17%lik o'sishni ta'minlab bergan. Hosildorlikni o'sishi bilan birgalikda mahsulot sotish bahosini o'sishi foyda miqdorini keskin ko'payishiga olib kelgan. Bu fermer xo'jaligiga sotib olingan yangi texnika bo'yicha to'lovlarni vaqtida amalga oshirish imkoniyatini yaratib bergan. Fermer xo'jaligida oxirgi uch yilda ekin maydoni o'zgarmasdan qolmoqda.

Qishloq xo'jaligida o'tkazilgan dala tajribalarning bosh vazifasi o'rganilayotgan tadbir yoki omilning o'simliklar xosildorligiga ta'sirini ilmiy asoslashdan iborat. Zeroqi xosildorlik qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning bosh mezoni xisoblanib ekinlar parvarishining asl maqsadi maydon birligida olinadigan xosildorlikni oshirishga qaratiladi. Mamlakatda yaratilgan va mavjud iqtisodiy potentsial, fan va texnikaning rivojlanishi, malakali kadrlar, ommaning aktivligi, ularning tajribasi, shuningdek yuqori pirovard natijalarga ommaning moddiy qiziqishining o'sishi o'simlikshunoslik va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirishga sharoit yaratadi, tannarxni pasaytirish va rentabellikni oshirish imkoniyatlarini ko'paytiradi.

«Iqtisodiy samaradorlik deganda bir yil davomida (ma'lum davrda) amalga oshirilgan tadbirlar tizimi bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar ular natijasida olingan sof foyda summasi bilan taqqoslanadi» - deb yozadi A.Abdug'aniyev, A.A.Abdug'aniyevlar.

A.Ismoilov, O.Murtazoyevlar esa, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi umumiy ko'rinishda ishlab chiqarishning natijasi, jonli va buyumlashgan mehnat xarajatlari o'rtasidagi nisbatini ifodalashini ta'kidlashadi.

O.Zokirov va boshqalar fikriga ko'ra, iqtisodiy samaradorlik sarflangan har bir so'mlik resurs evaziga qancha samara olinganligini aks ettiradi. Iqtisodiy samaradorlik darajasi esa ko'rilgan samara birligiga yoki har bir so'm hisobiga qancha ishlab-chiqarish resurslari sarflanganligini ko'rsatadi. Samaradorlik samara bergan resurslar miqdoriga nisbatan tezroq o'sadi. SHuning uchun «Samara» va «Samaradorlik» o'rtasida bog'lanish bo'lib, bu ishlab-chiqarishni rivojlantirish holatida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Karimsayod fermer xo'jaligida moddiy xarajatlarni o'sishi sekinlashgan va bu iqtisodiy jihatdan ijobiy holat hisoblanadi. Endigi qilinadigan ishlar va ko'riladigan choralarning yo'nalishi xarajatlarni kamayishi emas, xo'jalikda moddiy xarajatlardan keladigan samarani ko'paytirishga xizmat qiluvchi o'zgarishlarni amalga oshirish kerak. Bu esa yerlarning unumdorligi ko'tarish uchun uning meliorativ holatini yaxshilash, ishlab

chiqarishning mexanizatsiya darajasini oshirish asosida mehnat unumdorligi va ishlab chiqarishning intensivligini ko'tarish kabi choralarga ko'proq e'tibor qaratish zarurligini tasdiqlaydi. Buning uchun fermer xo'jaligida iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkoniyatlarini o'rganib chiqish kerak. Shu o'rinda xaqli savol tug'iladi – bug'doy etishtirishning samaradorligini oshirishga bugungi kunda ta'sir etadigan asosiy omil qaysi va uni optimalashtirish evaziga unumdorlikni oshirish mumkinmi ?

Mavjud ilmiy adabiyotlar va tajribalar asosida shuni aytish mumkinki, bug'doy etishtirishga eng kuchli ta'sir etuvchi omil bu – mineral o'g'it sarfi hisoblanadi. Shuning uchun biz keyingi paragrafda mineral o'git sarfining unumdorlikni ortishiga ta'sirini ko'rib chiqamiz va keyin tegishli xulosalar qilamiz.

2.2. Fermer xo'jaliklarida kuzgi bug'doy etishtirishga o'g'it me'ining ta'siri va uning iqtisodiy samaradorligi

Sug'oriladigan dehqonchilik sharoitida boshqoli don ekinlari shu jumladan, kuzgi bug'doydan yuqori va sifatli don hosili yetishtirish barcha agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli qilib bajarishga bog'liqdir.

Mineral o'g'itlar o'simliklarni yetarli ozuqa bilan ta'minlasada, fiziologik jarayonlarni o'tishini va uning pishib yetilishini biroz kechiktirib yuborishini ko'rsatgan. Tajribada nisbatan tez pisharlik alomatlari o'g'itsiz variantlarda qayd etilgan. Mineral o'g'itlarni yuqori me'yorda qo'llash fiziologik, biokimyoviy jarayonlarni jumladan fotosintezni jadallashtiradi. Natijada o'suv davri ma'lum darajada cho'zilishiga olib keladi. O'simlikni o'sib rivojlanishi va yuqori hosil olishni ta'minlashda maqbul ko'chat qalinligini ta'minlash alohida o'rin tutadi. Ko'chat siyrak bo'lganda garchi o'simlik baquvvat bo'lib, fiziologik jarayonlar jadal kechishi kuzatilsa-da, maydon birligidagi yetishtiriladigan hosil sezilarli darajada kam bo'ladi.

Shuningdek, hosilni salmoqli qismi kech pishib yetiladi. Olib borilgan tajriba natijalari kuzgi bug'doy navlarining tuplanish darajasi va mahsuldor poyalar soni ma'lum darajada agrotexnik tadbirlarga, jumladan o'simlikni oziqlantirishga bog'liqligini ko'rsatgan. Ma'lumki, don hosildorligi maydon birligidagi mahsuldor poyalar soniga ham bog'liq. Mineral o'g'itlar yuqori me'yorda qo'llanilgan sharoitda umumiy mahsuldor poyalar soni ancha yuqori bo'ladi. Bu variantlarda 1 m² da mahsuldor poyalar soni 469,2 donani tashkil etgan. Mineral o'g'itlar qo'llanilmagan sharoitda mahsuldor poyalar 295.2 donani tashkil etadi. Bundan ko'rinib turibdiki, yuqori me'yordagi o'g'it me'yorlari hisobiga mahsuldor poyalar soni 96,8 donaga ortgan. Demak, mahsuldor poyalar soni ma'lum darajada solingan mineral o'g'itlarga va tuproq unumdorligiga bog'liq. Bu holatni tushunib etish uchun biz "Karimsayod" fermer xo'jaligining ishlab chiqarish xarajatlari va uning iqtisodiy samaradorligi darajasini ko'rib chiqamiz. (5-jadval).

5-jadval

Paxtaobod tumanidagi «Karimsayyod» fermer xo'jaligida bug'doy yetishtirishning iqtisodiy samaradorligi

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov bir ligi	2013	2014	2015	2015 yilda 2013 yilga nisbati %
1	Ekin maydoni	ga	40	40	41,9	105
2	Xosildorlik	ts\ga	47,4	48,0	54,9	115,8
3	Yalpi xosil	ts	1896	1920	2300	121
4	Ishlab chikarish xarajatlari	m.s	62641	75374	106486	170
	Shundan: - ish xaki	m.s	9396	11305	15972	170
5	Xodimlar soni	nafar	8	8	8	100
6	Yalpi maxsulot	m.s	75230	96173	137748	183
7	Foyda	m.s	12589	20799	31262	248
9	1 ts bugdoyni tannarxi	sum	33, 03	39, 25	46, 29	140
10	1 ts bugdoyni sotish baxosi	sum	39, 67	50, 09	59, 89	151
11	1 ga xisobiga:					
	a) yalpi maxsulot	m.s	1881	2404	3048	162
	b) foyda	m.s	314, 7	519, 9	746, 1	237
12	Rentabellik	%	20	27	29	+9

5-jadval ma'lumotlariga ko'ra o'tgan davr mobaynida bug'doy etishtiriladigan yer maydoni 5%ga oshgan xolos. Hosildorlik esa qariyb 16%ga o'sgan. Yalpi hosil esa 21%ga o'sgan. Lekin ishlab chiqarish harajatlari 70%ga ortgan. Hodimlar soni o'zgarmasdan qolgan. Yalpi mahsulot hajmi esa 83%ga ortgan. Ishlab chiqarish hajmini xarajatlarga nisbatan ustun tarzda o'sishi fermer xo'jaligida foyda miqdorini ortishiga olib kelgan. Foyda hajmi esa 1,5 baravariga ortishi yuz bergan. Buning sababi – fermer xo'jaligida mahsulot tannarxini o'sishida sekinlashuv yuz bergani bilan bo'g'liq. Bu ayniqsa 1 ts bug'doyni

tannarxini o'shishida yaqqol ko'zga tashlanadi. 1 ga hisobiga to'g'ri keladigan mahsulot hajmini ortganligi xo'jalikda yerdan samarali foydalanish yuz berganligini ko'rsatadi. Buni tushunib yetish uchun bug'doy etishtirish xarajatlarini ko'rib chiqamiz. 6-jadvalda Paxtaobod tumani «Karimsayyod» fermer xo'jaligida bug'doy yetishtirishning xarajatlar tarkibi aks ettirilgan.

6-ladval

«Karimsayyod» fermer xo'jaligida bug'doy yetishtirishning xarajatlar tarkibi

№	Xarajatlar turi	2013y		2014 y		2015 y	
		M.s	%	M.s	%	M.s	%
1	Moddiy xarajatlar	47607	76	51254	68	63891	60
	a) urug'lik	6665	14	7688	15	9584	15
	b) o'g'itlar	9044	19	10251	20	12778	20
	v) YO.M.M	11900	25	14350	28	19806	31
	g) Ish va xizmatlar	6665	14	7175	14	8304	13
	d) Boshqa moddiy xarajatlar	1904	4	1025	2	638,9	1
2	Mexnat xaki xarajatlari	9396	15	11305	15	15972	15
3	Ijtimoiy ajratmalar	939,6	1,5	1131	1,5	1597	1,5
4	Asosiy vositalarni eskirishi	2505	4	3015	4	4259	4
5	Boshka xarajatlar	3132	5	2261	3	2130	2
	Jami xarajatlar	62641	100	75374	100	106486	100

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tahlil etilayotgan 2013-2015 yillarda bug'doy yetishtirish xarajatlari bo'yicha barcha ko'rsatkichlarda ijobiy natijalarga erishilgan. Moddiy xarajatlar 76%dan 60%gacha qisqargan, bu esa asosan ishlab chiqarishni intensivlashtirish evaziga yuz bergan. Buni moddiy xarajatlar tarkibida mineral o'g'it va yoqilg'i - moylash xarajatlarini tez o'sib borгани hamda qolgan turdagi xarajatlarni kamayishi yuz bergani bilan izohlash mumkin. Fermer xo'jaligi bug'doy yetishtirish xarajatlarini kamaytirishda ish va

xizmatlar guruhining ulushi hamon kattaligicha qolmoqda. Kelalajda ushbu turdagi xarajatlarni kamaytirish evaziga tannarxni yanada pasaytirish mumkin. Boshqa moddiy xarajatlar va boshqa xarajatlar guruhlaridagi qisqarish fermer xo'jaligi begona texnika evaziga ish bajarishdan voz kechib, o'z pulini tejash imkoniyatini qo'lga kiritganini tasdiqlaydi.

Qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash sharoitida bu ob'ektiv zaruriyat bo'lib, xo'jalikda ishlab chiqarishni texnik-texnologik jihatdan qayta jihozlash, yani ishlab chiqarishni intensivlashtirish jarayoni yuz berayotganini tasdiqlaydi.

4-jadval jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, «Karimsayyod» fermer xo'jaligida bug'doy yetishtirish xarajatlarida ma'lum bir o'zgarishlar mavjud. Jumladan, moddiy xarajatlar qisqarishi kichkina bo'lsada, har holda xarajatlarni o'sishi to'xtagan. Bu fermer xo'jaligi uchun juda yaxshi yutuq bo'lib hisoblanadi. Moddiy xarajatlarni tarkibida urug'lik xarajatlari 14%dan 15% gacha o'sgan va bu mahsulot etishtirish hajmini ortishi bilan hamohang yuz bergan.

Mineral o'g'itlar sarfi esa 19%dan 20%gacha o'sgan. Yoqilg'i moylash mahsulotlari esa 25%dan 31%gacha o'sgan. Bu xo'jalikda hosildorlikni o'sishi asosan mineral o'g'it va eng asosiysi mexanizatsiyalashuv darajasini o'sishi evaziga yuz berganini tasdiqlaydi. Ishlar va xizmatlar bo'yicha xarajatlarni qisqarishi xo'jalik o'zini texnik ta'minotini keskin yaxshilab olganligini ko'rsatayabdi. Xo'jalikda ish haqi xarajatlari 11%ga tushgan. Lekin ish xaqi mutlaq miqdori qisqarmagan. Unung xarajatlar tarkibidagi ulushi kamaygan xolos. Bu xodimlarga to'lanayotgan ish xaqini umumiy holda yuqorligini ko'rsatib turibdi. Chunki, ish haqi xarajatlarini bunday yuqori darajada bo'lishi fermer xo'jaliklariga xos bo'lmagan holat bo'lib hisoblanadi. Xo'jalikda ijtimoiy ajratmalar ko'rsatkichi kichkina miqdorda qolib ketgan, ya'ni 1,5.

Asosiy visitalarni eskirishini qoplash xarajatlari esa katta emas. Chunki texnika yangi. Bu sotib olingan qishloq xo'jalik texnikalari amortizatsiyasi bilan bog'liq holat hisoblanadi. Boshqa xarajatlar esa 3–4% atrofida qolgan. Xulosa qilib, shuni aytish mumkinki, Karimsayyod fermer xo'jaligida ishlab chiqarishni texnik modernizatsiyalash jarayoni tekis yuz bermoqda. Bu jarayonning ta'siri esa

jami ishlab chiqarish xarajatlari tarkibida moddiy xarajatlarini o'sishini to'xtashida bilinmoqda.

Vujudga kelgan o'zgarish ko'rsatkichlarda o'zaro mutunosiblik borligini ko'rsatmoqda. Ya'ni, ishlab chiqarish xarajatlari bilan yalpi mahsulotni o'sish sur'atlarida o'zaro to'g'ri proportsionallik mavjud. Bug'doy etishtirishning xarajatlarini o'sishi uni yetishtirish uchun talab qilinadigan moddiy-texnika resurslarining narxlari muntazam ortib borishi asosida yuz bermoqda. Fermer xo'jaligida bug'doy yetishtirish xarajatlari oxirgi uch yilda 170%ga ortgan. Bu iqtisodiy jihatdan normal holat hisoblanadi. Chunki, mahsulot ishlab chiqarish hajmi bilan tannarxni ortib borishi o'rtasida to'g'ri proportsionallik bor. Lekin foydani ortib borishi yuqoridagi ikkita sur'atga nisbatan kattarroq miqdorda yuz bergan. Yalpi mahsulot 183%ga ortgan holda foyda 241%ga teng bo'lgan. Ko'rib chiqilayotgan davrda 1ts bug'doyning tannarxi 140% atrofida, sotish bahosi 151% ortgan. Hosildorlik darajasidagi o'zgarish tannarx o'zgarishiga mos keladi. Ushbu ma'lumotlar Karimsayod fermer xo'jaligida ham mahsulot etishtirishda mineral o'g'it va yoqilg'I moylash xarajatlari kuchli ta'sir ko'rsatganini tasdiqlaydi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarni taqqoslab ko'rish uchun avval Pahtaobod tumanida o'tkazilgan tajriba natijalari bilan tanishib chiqamiz. Paxtaobod tumaninig "Nur Agro" fermer xo'jaligida 2011-2012 yilda o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, quyidagi yutuqlarga erishilgan. [37]

Kuzgi bug'doy yuqori sifatli xosilni shakllanishiga juda ko'p omillar ta'sir etadi. Buni vegetatsiya davri davomida o'simlikni o'sishida va vegetativ xamda generativ organlarni shakllanish jarayonida kuzatish mumkin. G'alla ekinlarinig asosiy biologik hosilini ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:

- maydon birligidagi o'simliklar soni.
- bitta o'simlikdagi mahsuldor poyalar soni.
- maydon birligidagi boshhoqlar soni.
- boshhoqdagi don soni.
- 1000 ta don vazni.

Tajribada boshqoq uzunligi (sm) bo'yicha nisbatan yuqori ko'rsatkichlar yuqori o'g'it me'yorlari qo'llanilgan variantlarda kuzatilgan. Bu boshqodagi don soni aniqlanganda xam xuddi yuqoridagi qonuniyat kuzatiladi. Bunda xam yuqori ko'rsatkichlar NPKning 8 t don uchun hisoblangan o'g'it me'yorlari qo'llanilgan variantda qayd etiladi. Bunda bitta boshqodagi don soni 48,7 donaga donaga yetadi. 1000 ta don vazni va boshqodagi don vazni ko'rsatkichlari xam xudda shu variantlarda yuqori bo'lishi qayd etiladi.

7 - jadval

Mineral o'g'itlar me'yorini kuzgi bug'doy xosildorligiga ta'siri

Variantlar	Qaytariqlar				O'rtacha
	1	2	3	4	
O'g'itsiz	35,5	37,1	35,8	36,4	36,2
Xo'galikda qabul qilingan o'git me'yori	63,3	61,8	63,5	62,2	62,7
NPKning 8t don uchun hisoblangan me'yori	78,1	77	77,9	77,4	77,6

Manba: 4.4.1-jadval. Kuzgi bug'doy don hosiliga xisoblangan o'g'it me'yori ta'siri. AQXI. 2012y. Agronomiya fakulteti. Dotsent O.Mirzaev va talaba E.Artaqov. BMI.

Kuzgi bug'doyni don xosildorligini yuqori bo'lishida o'simlikni talabiga ko'ra namlik bilan ta'minlanishi muxim ahamiyatga ega. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki tajribada eng yuqori don xosildorligi mineral o'g'it me'yorlari 8 t don uchun xisoblab qo'llanilgan variantda kuzatilgan. Bunda gektaridan 77,6ts dan don xosili olishga erishilgan. Bunda farq o'git qo'llanilmagan variantga nisbatan 41,4ts/ga. Xo'jalikda qabul qilingan o'gitlar me'yoriga nisbatan 26,5 ts qo'shimcha xosil olingan. Demak, kuzgi bug'doydan yuqori va sifatli don xosili olish uchun o'simlikni mineral o'g'itlar bilan yetarli darajada ta'minlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kuzgi bug'doy xosildorligi xisoblangan o'g'itlar me'yorini ta'sirining iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari ham xisoblab topilgan. Bunda tajribadagi

hosildorlik, qo'shimcha hosildorlikni, qo'shimcha hosildan olingan daromad, ishlab chiqarish harajatlari, foyda va 1 so'mlik xarajat xisobiga olingan foyda ko'rsatkichlari bug'doy navlari va variantlar bo'yicha aks hisoblangan. Bug'doyni Kroshka navi xar uchchala variantdan birinchi variant bazis ko'rsatkich bo'lib, bu variantga nisbatan ikkinchi va uchinchi variantlar taqqoslab olingan. Iqtisodiy ko'rsatkichlarni aniqlash uchun o'g'it qo'llanilmagan varianti 2-variant bilan taqqoslanganda ushbu variantdan 26,5ts qo'shimcha hosil, qo'shimcha hosil daromadi 778570 so'mlik pul daromadi olingan [37]. Natijada 2 variantda olingan qo'shimcha hosilni sotishdan kelgan foyda 181511 so'mni tashkil etgan. 1 so'mlik xarajat hisobiga esa 0,33 so'm foyda olingan. Yuqori o'g'it me'yorlari qo'llanilgan variantlarda esa o'g'itsiz variantga nisbatan 41,4ts qo'shimcha hosil olingan. Qo'shimcha hosil daromadi esa 1216332 so'mni tashkil etgan. Qo'shimcha xosilni sotishdan kelgan foyda 410815 so'mga teng bo'lib 1 so'mlik xarajat xisobiga 0,51 so'm foyda olingan. Yuqirida keltirilgan ma'lumotlardan quyidagi hulosalarni qilish mumkin:

1. Mineral o'g'itlar o'simlikda fiziologik jarayonlarni o'tishini va uning pishib yetilishini biroz kechiktirib yuborishini ko'rsatadi. Tajribada nisbatan tez pisharlik alomatlari o'g'itsiz variantlarda qayd etildi. O'g'it qo'llanilmagan variantlarda kuzgi bug'doy navi 228 kunda pishib yetilgan. Bunda NPK xo'jalik me'yorida qo'llanilgan variantlarga nisbatan 2 kun, NPK 8t don uchun hisoblangan me'yorda qo'llanilgan variantlarga nisbatan 3 kun ilgari pishib yetiladi.

2. Mineral o'g'itlar me'yorini kuzgi bug'doy hosil strukturasi ham ijobiy ta'sir etadi. NPKning 8t don uchun hisoblangan o'g'it me'yorlari qo'llanilgan variantda o'g'itsiz variantga nisbatan boshqoq uzunligi 2,6 sm. yuqori bo'lishi, 1000 ta don vazni 2,8 g yuqoriligi, boshqoqdagi don 1 g yuqori bo'ladi.

3. Iqtisodiy samaradorlik hisoblanganda 1 so'mlik harajat xisobiga olingan foyda bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar mineral o'g'it me'yorlari 8t don uchun xisoblab qo'llanilgan variantda 1 so'm xarajat xisobiga olingan daromad 0,51 so'mni tashkil etgan. Ushbu tadqiqot natijalarini ilmiy adabiyotlarda keltirilgan

fikrlar bilan taqqoslasak, mineral o'g'itlarning bug'doy etishtirish samaradorligiga ta'siri yanada oydinlashadi.

O'simliklarni, shu jumladan kuzgi bug'doyni ma'danli o'g'itlar bilan oziqlantirishda azot elementi asosiy o'rinni egallaydi. SHu bois dehqonchilikda ekinlardan yuqori hosil olishda azotli o'g'itlar dastlabki zarur omil hisoblanadi.

Azot kuzgi bug'doyning barcha o'sish va rivojlanish davrlarida kerak, o'simlik o'suv davrining boshidan oxirigacha uni har hil miqdorda o'zlashtirib turadi. O'simlik azot bilan yaxshi ta'minlangan bo'lsa, tuplari bo'liq, to'la rivojlangan, to'q bargli bo'ladi. Agar o'simlik azot bilan yaxshi ta'minlanmasa, rivojlanishi salbiy tomonga o'zgaradi, barglari och yashil, sarg'ish rangli bo'lib, hosil keskin kamayganligi aniqlangan.

O'simliklar azotni nitrat yoki ammoniy shaklida o'zlashtiradi. O'simlik tomonidan o'zlashtirilgan nitratlar ammoniy shaklga o'tadi va uglevodlar, boshqa bir qator moddalar bilan o'simlikning yashil bargida birikishi natijasida aminokislotalarga aylanadi. O'simlikni azot bilan oziqlanishini kuchayishi, ya'ni protein hosil bo'lishining jadallashuvi o'simlikda fotosintez jarayoni sodir bo'luvchi barglar sathining keskin oshishiga olib keladi. Tarkibida azot tutuvchi organik birikmalar tuproqdagi ma'dan azotning manbai bo'lib hisoblanadi.

Ramazonov O. va Yusupbekov O. (2003 y) larning ta'kidlashlaricha, bug'doy ozuqa elementlariga talabchan. U 1 tsentner quruq modda to'plash uchun 3,7 kg N, 1,3 kg R va 2,3 kg K sarflaydi.[35] Ekishdan oldin o'tmishdosh ekinlarga e'tibor berilgan holda har gektariga 30–40 tonna go'ng, 60–70 kg R, 70–80 kg K va 30 kg N solinadi. Bu ish erta bahorda qor ketishi bilanoq boshlanadi va 2–3 muddatda o'tkaziladi. O'g'itlashni, ayniqsa, azot moddasi berishni kechiktirib bo'lmaydi, eng kechki muddati boshloqlashning boshlanishiga to'g'ri keladi. Aks holda bug'doy g'ovlab ketadi, yotib qoladi va kech pishadi.

Jumaboev Z., Azizov B va boshkalar (2000 y) Andijon viloyatining och tusli bo'z tuproqlarida YUna navining uch xil ekish muddati va me'yoriga N – 240 kg, R – 180 kg va K – 120 kg miqdorda mineral o'g'itlar qo'llab gektaridan 46,2–66,0

tsentnerdan hosil olishga erishganlar. YAqubjonov O., Jalolov T. (2002 y) larning tasdiqlashlaricha,

Andijon viloyatining och tusli bo'z tuproqlari sharoitida tuproqni tabiiy unumdorligi hisobiga olingan kuzgi bug'doy don hosili gektaridan 10–12 tsentner bo'lganida gektar hisobiga sof xolda 200 kg azotli, 150 kg fosforli, 100 kg kaliyli o'g'it qo'llanilganida don hosildorligi gektariga 60–70 tsentnerni tashkil etgan. O'g'itlar yerga ekish oldidan shudgor vaktida va o'suv davrida beriladi.

Jalieva L.D., Zastenko N.N., (2001 y), bergan ma'lumotlarga qaraganda, kuzgi bug'doy yetishtirishda fungitsidlar bilan birgalikda azotli o'g'itlar bilan oziqlantirish bug'doy hosildorligini oshiradi. Bug'doyni Pobeda – 50 navidan eng yukori 3,2 tsentner qo'shimcha don xosili N – 40 kg, R – 40 kg va K – 40 kg dan asosiy haydov oldidan solinib, o'suv davrida tabaqalashtirib azot bilan oziqlantirilgan hamda tipik fungitsidi bilan ishlangan variantda olishgan.

B.Xoliqov (2000 y) Respublikamizda donli ekinlar hosildorligini oshirish borasida, g'allakorlarga maslahat sifatida, boshqa agrotexnik tadbirlar bilan bir qatorda quyidagilarni tavsiya qiladilar: yuqori hosil olish uchun 1 gektar yerga 160-180 kg azot, 90-100 kg fosfor va 60 kg kaliy solinishi kerak. Bunda fosforli va kaliyli o'g'itlarning barcha me'yorlari yerni haydash oldidan, ekish oldidan ishlov berish vaqtida yoki ekish bilan bir vaqtda solinadi. O'simlikka berilayotgan azot miqdorini oshirish fosfor elementidan foydalanish samarasini kamaytiradi, tabiiy tuproq iqlim sharoitlariga qarab fosfordan foydalanish koeffitsienti 2% dan 40 % gacha o'zgarib turadi. Tuproqqa solinadigan mineral o'g'itlarning bir qismi tuproq zarrachalariga birikadi, qolganlari esa yuvilib, yo'qolib ketadi. Azotning bir qismi havoga uchib ketadi, har xil yo'llar bilan boshqa shakllarga o'tadi va yog'ingarchilik bilan (9-50%) yuvilib ketadi, mikroorganizmlar o'zlashtiradi, (11-59 %) tuproqqa singib ketadi. O'simlik uchun beriladigan mineral holdagi azotdan tashqari qo'shimcha ravishda organik moddalarning minerallasuvi natijasida ham tuproqdagi azotni miqdori ortadi (Smirnov P.M, 1977).

Mirzaev O.F, Tursunov S.,Qodirov O., Usmonov I. (2005 y) ma'lumotlariga ko'ra kuzgi bug'doyni «CHillaki» navini 10 t don hosili olish uchun balans

usulida mineral o'g'itlar me'yorini hisoblab, ana shu o'g'itlar me'yorlari bilan o'g'itlansa rejalashtirilgan hosilga yaqin bo'lgan hosilni olish imkoniyati yaratilar ekan.

Musaev B.S. ning (2001 y) ma'lumot berishicha o'simlikni rivojlanishining ilk davrlarida oziq moddalar bilan ta'minlanishini yaxshilash uchun ekishgacha oz miqdorda azotli – fosforli murakkab o'g'it qo'llash lozim. Serkorbanatli tuproqlarda azotli, fosforli va kaliyli o'g'itlarni o'rtacha me'yorda qo'llash gektaridan 4–7,0 tsentner qo'shimcha hosil olishni ta'minlaydi.

Sug'oriladigan dehqonchilik sharoitlarida kuzgi bug'doyga qo'llaniladigan o'g'itlarning samaradorligi yanada yuqori bo'ladi. Qo'llaniladigan 1 kg NRK hisobiga 7–8 kg don olinadi. Xayitboev A. (2002 y), bergan ma'lumotlariga ko'ra, sug'oriladigan yerlarda qattiq bug'doyni vegetatsiya davomida sharoitga qarab, o'g'itlash 2–3 marta o'tkaziladi, sug'orish me'yori 500–700 m³, oziqlantirish me'yori esa N – 180 kg, R – 90 kg, K – 60 kg/ga bo'lib, bu tadbirni 2 marotaba: tuplash va boshqalash davrlarida o'tkazish lozim.

Yakubjonov O.YA, Mirzaev O.F, Tursunov S, Janazaqova D (2005 y) ma'lumotlariga ko'ra Mineral o'g'it turlarini kuzgi bug'doyning Kroshka navining o'sish, rivojlanish davrlari davomiyligiga turlicha ta'sir etadi. Tajribalarda NPK o'g'itlar qo'llanilgan variantdan 74,6 ts/ga, NP qo'llanilgan variantda 59,7 ts/ga, NK qo'llanilgan variantda 57,3 ts/ga va PK qo'llanilgan variantda esa 46,0 ts/ga hosil olindi. PK, NK va NP o'g'itlarni alohida qo'llash maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Kuzgi bug'doy uchun NPK o'g'itlarni birgalikda qo'llaganida samarali natijalarga erishish mumkin bo'ladi. Hosildorlik ko'rsatkichlarini yuqori bo'lishiga ham NPK ni birgalikda qo'llanilganda erishiladi.

Mirzaev O, Azizov B. va boshqalarning (1999y) ta'kidlashlaricha, kuzgi bug'doyga azot – 200, fosfor – 150, kaliy – 120 kg/ga dan qo'llanilganda, fosforli va kaliyli o'g'itlarning 80 foizi ekishdan oldin tuproqqa asosiy ishlov berishda solinadi. Fosfor va kaliyning qolgan qismi hamda azotli o'g'itlarni ikkiga bo'lib, ya'ni erta bahorgi oziqlantirishda va o'simlikni naychalash davrida berilganda samarali natijaga erishiladi.

G'.Otaboev (1997), ma'lumot berishicha fosforli va kaliyli hamda mahalliy o'g'itlar ekishgacha, azotli o'g'itlar mahalliy o'g'itlar berilmagan maydonlarning gektariga 25-30 kg solinsa ayni muddao bo'ladi. Azotli o'g'itlarning yillik me'yorlarining qolgan qismini tabaqalashtirib, avval o'simlik qishlovdan chiqqandan keyin (fevral, mart) gektariga 65-75 kg dan, naychalash davrida (mart, aprel) berilsa samarasi yuqori bo'ladi.

Farg'ona viloyatining o'tloqi soz, og'irqumoq, kuchsiz sho'rlangan tuproq sharoitida 15 hil bug'doy navlarini ekologik sinovdan o'tkazildi. Ozuqa sifatida bug'doy navlariga sof holda N – 180 kg, R – 90 kg va K – 50 kg/ga qilib berilganda, fosforli va kaliyli o'g'itlarni haydov oldidan sepildi. Azot o'g'itini amal davomida uch marta yerga sepildi. Birinchi o'g'itlash noyabr oyining boshlarida, 12 ya'ni bug'doy chaylay boshlaganda sof holda 30 kg/ga azot (ya'ni 100 kg/ga ammiak selitrasi) sepildi. Ikkinchi o'g'itlash mart oyining boshlarida, uchinchi o'g'itlash esa aprel oyining ikkinchi yarmida 75 kg/ga dan sof azotni machevina holida sepildi va samarali natijaga erishilgan. (YUsupjonov X, Abdullaev A. (2000 y).

Nazarov M., Mamadaliev A, va boshkalar (1991 y) bergan ma'lumotlari, fosforli o'g'itlar vegetatsiyaning dastlabki 30–35 kunlari eng ko'p sarf bo'ladi, shuning uchun ularni haydov oldidan solishga e'tibor berish kerak. SHuningdek, ekish bilan birga gektariga 20 kg sof holda egatlarga solinadi. Fosforli va kaliyli o'g'itlar lentasimon usulda 10–12 sm chuqurlikda solinganda yaxshi samara beradi. Agar tuproqda azot yetarli bo'lmasa ekishdan oldin yoki kuzda yillik me'yorning 20–30 foizini solish kerak.

A. M. Dehqonov (2007) ning tavsiya berishicha irrigatsiya eroziyasiga chalingan tuproqlarda oziqa unsurlar kamligi uchun tuproq unumdorligini saqlash va oshirish, bug'doydan mo'l hosil etishtirish uchun qiyalikning tuprog'i yuvilgan qismiga N-270; R2O5-185; K2O-135 kg/ga, qiyaligi yuvilib tushgan qismiga esa N-200; R2O5-140; K2O-100 kg/ga me'yorda ma'dan o'g'itlar qo'llash lozim.

R. I. Siddiqov (2007) tadqiqotlari natijasida shunday xulosaga kelgan, tipik va och tusli bo'z tuproqlarining agrokimyoviy xossalriga asoslanib kuzgi bug'doydan

yuqori va sifatli don hosili etishtirish uchun har bir gektar yerga 210 kg azot, 90 kg fosfor hamda 60 kg kaliy, o'tloqi soz tuproqlarda 180 kg azot, 90 kg fosfor va 60 kg kaliy o'g'iti belgilanib, fosforli va kaliyli o'g'itlarni yillik me'yori yerni ekishga tayyorlash oldidan, azotning yillik me'yorini esa o'simlikni o'sish, rivojlanish davrida tabaqalashtirilgan holda kuzda (15%), erta bahorda (25%) naychalashda (45%) va boshqalash don to'lish davrlarida (15%) berilishi maqsadga muvofiqligini aniqlangan.

G'alla va dukkakli o'simliklar ITining Namangan filiali etakchi mutaxassislari professor N. Ataxanov va M. Valievlar (2002) ning fikricha rejalashtirilgan hosil yetishtirishda kuzgi bug'doy uchun NRK qo'lanilganda o'g'it balansini to'g'ri belgilash asosiy omillardan biri hisoblanadi. Bunda oziqa elementlarini o'simlik orqali o'zlashtirish bilan birga faol ildiz qatlamini ham hisobga olish lozim. O'g'it me'yori 22-16 sm qatlam uchun belgilansa $m^2/100$ ni 30 koeffitsientga, 25 sm qatlam uchun belgilansa 34,4 koeffitsientga, 30 sm uchun esa 41 koeffitsientga ko'paytiriladi. Kuzgi bug'doy 1 ts don olish uchun 3,25 kg azot, 1,15 kg fosfor o'zlashtirsa o'simlik orqali o'zlashtirish koeffitsienti 0,67 va 0,30 bo'lsa, har bir tsentner don uchun 4,85 kg azot va 3,83 kg fosfor solinishi lozim. Demak, azot bilan fosfor nisbati 1,26:1 bo'ladi va shunga ko'ra mineralli o'g'it me'yori belgilanadi.

O'simlikning azotli oziqalarga ehtiyoji M.A. Davletiyarov (2002) ma'lumotlariga ko'ra kuzgi bug'doyning maysalash davridan seziladi. Bu davrda tuproqda azotning yetishmasligi o'simlikni o'sish – rivojlanish jarayonini sekinlashtiradi. Sug'oriladigan dehqonchilik sharoitida kuzgi bug'doyda tuproq namligini kerakli miqdorini bilish, sug'orish muddatlarini va me'yorlarini aniqlash, o'rganilayotgan kuzgi bug'doy navidan potentsial miqdorda hosil olishni ta'minlaydi. Asossiz ravishda bir tomonlama azotli o'g'itlar me'yorini oshirish mahsulot tarkibida nitrat va nitritlarni oshib ketishiga olib keladi. Azot me'yori tuproqdagi fosfor va kaliy miqdoriga qarab belgilangandagina o'simlik qo'llanilgan azotdan to'la foydalanadi.

3-Bob: Paxtaobod tumanidagi “Karim sayyod” fermer xo’jaligida bug’doy yetishtirish iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlari

3.1. Fermer xo’jaliklarida bug’doy yetishtirish agrotexnologiyasi

Bug’doy eng ko’p tarqalgan asosiy donli ekinlaridan biri hisoblanadi. Butun dunyo xalqlarining yarmidan ko’prog’i oziq-ovqat sifatida bug’doy nonidan foydalanadi. Bug’doy nonning tarkibida oqsil va kraxmal ko’p, oqsil moldalar asosan kleykovina tarkibida bo’lganligi uchun uning unidan sifatli non tayyorlanadi. Bug’doy noni o’zining ta’mi, to’yimlilik va hazm bo’lishi bilan yuqori baholanadi. Bug’doy donining tarkibida uning naviga, ekish shapoitira qarab 11,0% dan 18-19% gacha oqsil moddasi bo’ladi.

Bug’doy nonidagi oqsilni hazm bo’lishi 95% ni tashkil qiladi. Bundan tashqari, bug’doy donidan yorma tayyorlanadi, uning uni makaron va konditer sanoatida ishlatiladi. Bug’doyning somoni va poxoli yem-xashak sifatida chorva mollariga beriladi, yanchishdan chiqqan chiqindilari yukori sifatli ozuqa hisoblanadi. Texnikada bug’doy donidan spirt, kraxmal, kleykovina, dekstrin, kley va boshqa har xil mahsulotlar olinadi. Bug’doy donining sifati, ya’ni tarkibidagi oqsil, kleykovina uning naviga bug’doy yetishtirilayotgan mintaqaning tuproq-iqlim sharoitiga qarab o’zgaradi.

Bug’doy eng qadimgi madaniy o’simliklardan hisoblanadi. U Misrda eramizdan 6000 yil oldin ekilgan, bu davrda Misrda sug’oriladigan dehqonchilik rivojlangan. Kavkaz ortida, Ukrainada, yevropa va Osiyoda bug’doy eramizdan 4000 yil oldin ekilgan. Bug’doyning kelib chiqishi va uning birinchi ekilgan mintaqalari to’g’risida aniq bir ma’lumot yo’q. Hozirgi vaqtda bug’doy butun yer yuzida o’zining ekin maydoni bo’yicha boshqa ekinlar orasida birinchi o’rinda turadi. Uning yer yuzidagi jami ekilayotgan maydoni 225 mln. gektarni (FAO, 2012) tashkil qiladi. Bug’doyni ko’p ekadigan mamlakatlarga Rossiya, Xitoy, Amerika Qo’shma SHtatlari, Hindiston, Kanada, Argentina, Frantsiya va boshqa

bir qator mamlakatlar kiradi. Bug'doyning biologik xususiyatlari: bug'doy umuman donli ekinlar biologik xususiyatlariga ko'ra kuzgi va bahorgi shakllarga bo'linadi.

Kuzgi bug'doy kuzda ekilib, qishlab chiqqandan keyin kelasi yili hosil beradi. Bahorgi bug'doy erta bahorda ekilib, o'sha yo'li hosil beradi. Kuzgi bug'doyning bahorgilardan farqi shundaki, ularning birinchi boshlang'ich rivojlanish davri past (00 dan 100 gacha) haroratda 30-65 kun davom etadi. Bahorgi bug'doy esa boshlang'ich rivojlanish davrini 5-100 va undan yuqori haroratda 7-12 kun, ya'ni tez muddat ichida o'tadi.

Demak, biologik jihatdan kuzgi navlarini bahorda ekish mumkin emas, chunki bahorda u talab qilgan harorat bo'lmaganligi sababli o'simliklar faqat tuplanadi, boshoq chiqarmaydi va hosil bermaydi. Bug'doy kuzda ekilganda, uning biologik kuzgi navlari ishlatilishi kerak. Biologik bahorgi navlarni ham kuzda ekib bo'lmaydi, chunki ular ko'proq issiq haroratga talabchan bo'lganligi uchun qishgi sovuqlar natijasida nobud bo'ladi. Lekin qish yumshoq keladigan mintaqalarda navlarning uchinchi turi yarim kuzgi navlari uchraydi. Bu navlarni kuzda va bahorda ekish mumkin, ikki holda ham ulardan normal don hosili olinadi. Yarim kuzgi navlarni kech kuzda ekish kerak. Ertagi muddatlarda biologik kuzgi navlar ekilishi kerak. Yarim kuzgi navlarning qishga chidamliligi bahorgi navlarga nisbatan yuqori bo'ladi. Shuning uchun O'zbekistonning lalmi va sug'oriladigan yerlarida kuzgi muddatda ekish uchun biologik va yarim kuzgi navlardan foydalanish kerak. Umuman, O'zbekistonning barcha viloyatlarida bug'doy kuzda ekilishi kerak. Chunki ular kuzgi qishgi, bahorgi yog'ingarchiliklardan to'la foydalanadi. Bahorda erta o'sa boshlaydi, bahorgi ekinlarga nisbatan 10-12 kun erta pishadi, shuning uchun kuzgi bug'doyning gullash davri yozgi issiq garmisel shamollarga duch kelmaydi va ular bahorgiga nisbatan yuqori (25-30%) va muttasil hosil beradi. Kuzgi bug'doyni etishtirish texnologiyasi: Almashlab ekishdagi o'rni. Kuzgi bug'doy tuprokning unumdorligiga, begona o'tlardan toza va nam bilan yaxshi ta'minlangan

tuproqlarga talabchandir. Barqaror mo'l hosil olish uchun kuzgi bug'doyni almashlab ekishda to'g'ri joylashtirish muhim ahamiyatga ega.

Kuzgi bug'doy sug'oriladigan yerlarda ertagi ekinlardan bo'shagan yerlarga kelasi yili takroriy ekin sifatida ekilishi kerak. Hozirgi vaqtda O'zbekiston «G'alla» ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyaga ko'pa bug'doyni o'sib turgan, lekin, paxtasi terib olingan g'o'za orasiga ekish usuli qo'llanilib, yaxshi samara bermoqda. Bunda resurs tejamkor texnologiya hisobiga iqtisodiy samaradorlik oshmoqda. Kuzgi bug'doyni lalmi yerlarnig tekislik va do'ngli tekislik zonalarda toza shudgorga, undan yuqoriroq zonalarda toza shudgordan tashqari, band shudgorga ekish foydali hisoblanadi.

Erni ishlash. Kuzgi bug'doy ekiladigan yerlarni undan oldin shu maydonda qanday ekin ekilganligi va dalaning begona o'tlardan qay darajada tozaligiga qarab ishlanadi. Bug'doyni optimal muddatda ekish va yerni yaxshi ishlash uchun oldingi ekindan bo'shagan maydonlar sug'oriladi. Tuproq yetilgandan so'ng 4 va 5 korpusli ag'darma pluglar yordamida 25-30 sm chuqurlikda haydash kerak, so'ngra boronalanadi va mola bostiriladi. yerlar notekis bo'lsa tekislanadi. SHudgorlangan maydon og'ir boronalar yoki zichlagichlar (katoklar) bilan zichlanishi kerak, aks holda kuzgi-qishgi sharoitlarda zichlannsh natijasida bug'doy maycalapi va o'simliklari siyraklashadi va nobud bo'ladi. SHo'rlangan yerlarga kuzgi bug'doy ekishdan oldin tuproq sho'ri yuviladi. O'g'itlash. Kuzgi bug'doy yerning unumdorligiga talabchan bo'ladi. Rejalashtirilgan hosilni olish uchun yerga solinadigan o'g'itlar me'yori agrokimyoviy kartogramma ma'lumotlariga asosan yerlardan hosil bilan chiqib ketadigan oziq moddalar, ekin o'zlashtiradigan oziq elementlar va yerga solingan o'g'itmiqdoriga qarab aniqlanadi. Kuzgi bug'doy azotga juda talabchan bo'ladi. U nay o'rash va boshoqlanish davrida azotni, o'sishning dastlabki 1-5-xaftasida fosforni va o'suv davrining boshidan gullagunga qadar, kaliyni ko'p talab kiladi. Fosforli va kaliyli o'g'itlar kuzgi bug'doyning qishga chidamliligini oshiradi, donning yetilishini tezlashtiradi. Poyaning yotib qolishidan va turli zamburug' kasalliklaridan saqlaydi. Ko'p miqdorda azotli o'g'itlar solinganda tuplanish muddati uzayib, poyalardagi boshhoqlar bir vaqtda

yetilmaydi. O'zbekiston G'alla» ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi ma'lumotlariga qaraganda kuzgi donli ekinlarga sug'oriladigan yerlarda quyidagi miqdorda o'g'it berilishi kerak: azot - 180 kg/ga, fosfor — 90 va kaliy 60 kg/ga. Lekin, unumdorligi past bo'lgan tuproqlarda bu miqdor 10-15% ga ko'paytiriladi. Ko'rsatilgan yillik miqdor bir necha muddatlarda — ekishdan oldin va o'simliklarning o'sish davrida oziqlantirishda beriladi. Sug'oriladigan yerlarda ekishdan oldin 30 kg/ga azot, 90 kg/ga fosfor va 60 kg/ga kaliy beriladi. SHu bilan bir vaqtda gektariga 10-12 t/ ga go'ng solinadi. Ekish davrida o'g'it solinmagan maydonlarda azot, fosfor va kaliy qisqa muddat ichida ekishdan keyin yokimaysa hosil qilganda, umuman o'g'itlar fevral oyidan kechiktirilmasdan solinishi kerak. qolgan o'g'itlarni teng ikkiga bo'lib, ikki marta oziqlantirishda solinadi. Birinchi oziqlantirish ergagi muddatlarda, ya'ni; o'simliklarning tuplanish davrida berilishi kerak. Bu muddat o'simliklarning rivojlanishiga qarab kuzgi-qishki yoki qishki-bahori muddatlarga to'g'ri kelishi mumkin. Ikkinchi oziqlantirish o'simliklarning nay o'rash davriga to'g'ri keladi. Oziqlantirishdan keyin maydonlarni sug'orish zapyp. O'g'itlarning samaradorligini oshirish maqsadida ularni optimal muddatlarda, yuqori sifatli o'tkazish zarur.

Ekish muddati. Kuzgi bug'doyni maqbul muddatlarda ekish katta ahamiyatga zga. Kuzgi bug'doyni sug'oriladigan yerlarda lalmi yerlarga nisbatan ertagi muddatlarda ekish kerak. CHunki bunday yerlar suv bilan ta'minlangan bo'lib ypyg' ekilgandan so'ng, sug'orish natijasida maysalarni undirib olish mumkin. Ertagi muddatlarda ekilgan bug'doy kuzda maysa hosil qiladi, sovuq tushgunga qadar o'simliklar tuplanib ulguradi. Bunday o'simliklar sovuqqa chidamli bo'ladi. SHuning uchun kuzda bug'doyning oktyabr oyida maysalanishi va oktyabr, noyabr oylarining oxirigacha uplanish va shu rivojlanish davrida qishlashi ko'zda tutilishi kerak. SHuni hisobga olgan holda kuzgi bug'doyning ekish uchun qulay muddatlari shimoliy viloyatlar Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm viloyati) uchun sentyabr oyining birinchi va ikkinchi o'n kunligi, markaziy viloyatlar uchun sentyabrning co'ngi o'n kunlik oktyabr oyining boshlari va janubiy viloyatlar uchun esa oktyabrning ikkinchi o'n kunligi hisoblanadi. Lalmikor yerlarda kuzgi

don ekinlar kuzgi yog'ingarchiliklardan oldin, ya'ni aksariyat viloyatlarda oktyabr oyining ikkinchi yarimlarida ekilishi kerak. Urug'ni ekishga tayyorlash. Sifatli urug'lik yuqori hosil yetishtirishda eng muhim omillardan biri hisoblanadi, urug'lik bug'doy yuqori hosilli urug'lik uchastkalaridan olinadi. Asosan yirik, og'irroq, tekis, qobig'i shikastlanmagan va unib chiqish darajasi yuqori bo'lgan urug'lar ekiladi. Ekiladigan urug'lik maxsus Petrus don tozalagich tsexlarida tozalanib, saralanadi va dorilab qoplanadi. So'ngra fermer xo'jaliklariga don qabul qilish shaxobchalari orqali tarqatiladi. Ekish uchun ishlatiladigan bug'doy urug'lari davlat andozasiga javob berishi kerak. Bu andoza bo'yicha 1 klass urug'larning unuvchanligi 95% dan past bo'lmasligi, tozaligi 99% bo'lishi kerak. Ikkinchi klass urug'larning esa unuvchanligi 92% va tozaligi 98,5% bo'lishi kerak. Ekish uchun 1 va 2 klass urug'larni ishlatish kerak. Tozalangan va saralangan urug'lik ekishdan oldin qorakuya va fuzarioz kasalliklariga qarshi 2 litr derazel 3 litr suvda eritilib dorilab qoplanadi. Ekish usullari, urug' ekish me'yori va chuqurligi. Kuzgi bug'doy asosan tor qatorlab dalaning bir tomonga, ya'ni sug'orish yo'lga qarab ekilishi kerak. SHundagina o'simlik yorug'lik, suv va oziq moddalardan teng foydalanadi. Bu usulda traktor g'ildiraklari joylanish masofasida 1-2 ta seyalkaning soshniklari berkitib, shu soshniklardan urug' ekilmaydi. Keyinchalik shu qoldirilgan qatorlar orqali bug'doy sug'oriladi. O'g'it va gerbitsid solinganda traktorning shu qatorlardan yurishi ta'minlanadi. Bundan tashqari, kuzgi bug'doyni dalaning ham bo'yiga, ham ko'ndalangiga qarab ikki marta ekish mumkin. Lekin, bu usulda ortiqcha urug'lik va yonilg'i moylash materiallari sarflanadi, sug'orish va traktor yurishi uchun qoldirilgan egatlardan dalaning ko'ndalangiga ekilgan o'simliklar nobud bo'ladi va ekish kechiktirib yuboriladi. Bu usulni lalmi yerlarning tekislik zonalarida qo'llash mumkin. O'zbekiston «G'alla» ilmiy ishlab chiqarish birlashmasining olimlari tomonidan ishlab chiqilgan g'o'zapoya orasiga g'alla ekish texnologiyasi ham samarali usul hisoblanadi. Bu texnologiya bo'yicha g'o'zapoya qator orasiga g'alla ekiladigan maydonlarda paxta 1-2 marta terim mashinalari yordamida terib olingandan so'ng g'o'za qator oralari kultivatsiyalar yordamida yumshatiladi. YUmshatilgan qator oralig'iga HRU-0,5 markali osma

o'g'it sepgichlar yordamida g'alla urug'i sepiladi, so'ngra urug' kultivator yoki maxsus moslamalar yordamida tuproqqa ko'miladi. Bu usulning afzalligi shundan iboratki, g'o'zapoya g'alla maysalarini sovuqdan va yotib qolishdan himoya qiladi.

Urug' ekish me'yori. Urug'ekish me'yori urug'likning sifatiga, tuproq unumdorligiga va suv bilan ta'minlanishiga qarab, har xil bo'ladi. Lalmi yerlar unumsiz va suv bilan ta'minlanmaganligi sababli gektariga sarf qilinadigan urug' miqdori sug'oriladigan yerlarga nisbatan kam bo'ladi. Urug'ni ekish me'yori lalmi yerlarning sharoitiga qarab har xil bo'ladi. Tog' oldi va tog'li zonalarda ko'proq, tekislik va do'ngli tekis zonalarda kamroq urug' sarflanadi. SHunga ko'ra bunday yerlarda bir gektar yerga 2,0-3,0 mln. dona, ya'ni 60-70 kg dan 120-125 kg gacha urug' sarflanadi. Sug'oriladigan yerlarning unumdorligi yuqori va suv bilan ta'minlanganligi sababli, o'simlik qalinligini oshirish hisobiga yuqori hosil olinadi. SHuning uchun sug'oriladigan yerlarda urug' ekish me'yori lalmi yerlarga nisbatan ikki barobar ko'p, ya'ni gektariga 4-5 mln.dona urug' ekilishi kerak. O'zbekiston «G'alla» ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi va ToshDAU tajriba stantsiyasida o'tkazilgan tajribalarga qaraganda, gektariga ekiladigan urug' me'yori 3 mln. donadan 6 mln. donagacha oshirilishi bilan bug'doy hosili ham oshganligi aniqlangan. Demak, kuzgi bug'doyni ekish me'yori urug'likning sifat hamda ekish sharoitiga qarab 200-250 kg/ga bo'lishi kerak. Kuzgi bug'doy ekish chuqurligi, uning sovuqqa chidamli bo'lishida katta ahamiyatga ega. Urug' chuqurroq ekilganda tuplanish bo'g'ini ham chuqurroq joylashadi. Kuzgi - qishgi sovuqlar poyalarga ta'sir qilgan vaqtda ham tuplanish bo'g'iniga ta'sir qilmasa, o'simlik nobud bo'lmaydi. SHuni hisobga olgan holda kuzgi bug'doyning urug'i ekish vaqtida 6-7 sm ga, lalmi yerlarda erta ekilganda esa 6-8 sm ga ko'milishi kerak. Ekinlarni parvarish qilish. Kuzgi bug'doyni parvarish qilish - boronalash, oziqlantirish va sug'orishdan iborat. Kuzgi bug'doy tuplanish davrida boronalanadi. Lekin, o'simliklarni tuplanish davri ham har xil muddatga to'g'ri kelishi mumkin. Kuzgi bug'doy optimal muddatda ekilib, namlik yetarli bo'lsa, kech kuzgacha o'simliklar tuplana boshlaydi va shu holatda qishlaydi, bunday

vaqtda erta bahorda, kechroq ekilganda ham bahorda o'simliklar tuplanish davrida yangi boronalar bilan boronalash yaxshi samara berishi aniqlangan. Buning natijasida tuproq usti yumshatiladi, o'g'it solinadi, o'simlikning ildiz bo'g'zi yetiladi va ular yaxshi tuplanadi. YUqorida aytib o'tilganidek, ekinlar ikki muddatda oziqlantiriladi. Birinchi marta tuplanish davrida boronalashdan oldin va ikkinchi marta nay o'rash davri boshlanganda oziqlantiriladi. Oziqlantirishda ekishdan oldin berilgandan so'ng qolgan o'g'itlar barobariga ikki qismga bo'linb, ikki marta beriladi. Kuzgi ekinlar tuproq-iqlim sharoitiga qarab 2-3 martagacha sug'oriladi. yer osti suvlari yuza joylashgan yerlar o'suv davrida 2 marta, er osti suvlari chuqur joylashgan yerlarda 3 martagacha sug'oriladi. Kuzgi bug'doy optimal muddatda sentyabr oyining oxiri oktyabr oyining boshlarida ekilganda, ekishdan so'ng sug'oriladi, bundan tashqari, o'sish davrida bug'doyni uch martagacha sug'orish mumknn, Ekin birinchi marta tuplanish davrida. ikkinchi marta nay o'pash davrida va uchinchi marta boshoqlanish davrida sug'oriladi. Sug'orish me'yori tuproq muhitiga qarab, gektariga 700-800 m³ dan 1000-1200 m³/ga ni tashkil etishi mumkin Bug'doy ekish vaqtida koldirilgan egatlar orqali sug'opiladi. Bu ucyl eng yaxshi usul hisoblanib, suv tejab sarflanadi. yer betida katqaloq hosil bo'lmaydi vasuv bir tekis taqsimlanadi. Kuzgi bug'doy hosilini yig'ib-terib olish. Kuzgi bug'doy hosilini yig'ib-terib olish don etishtirish va uning yalpi hosili oshirishdagi eng so'nggi va eng ma'suliyatli davr hisoblanadi. O'rim yig'im ishlarini o'z vaqtida va qisqa muddatda tugallash, nobudgarchilikning oldini olish, bug'doydan mo'l hosil yetishtirishning asosiy garovidir. Kuzgi bug'doy hosili oldin o'rib, keyin yig'ib olinishi asosiy usul hisoblanadi. Bu usulda ekinlar doni mum pishiqlik davrida maxsus o'rish mashinalarida yerdan 15-20 sm balandlikda o'rib, quritish uchun ang'izga yo'l-yo'l qilib tashlab ketiladi. Bu vaqtda o'rilgan bug'doy yerga to'kilmaydi. O'rilgandan bir necha kun o'tgandan so'ng, donning qurishiga qarab, podborshchik o'rnatilgan kombaynlarda yig'iladi va yanchiladi. Hosilni oldin o'rib, keyin yig'ib olish usulining afzalligi shundaki, u to'g'ridan - to'g'ri o'rib yanchishga qaragan o'rimni 5-6 kun erta boshlashga imkon beradi, takroriy ekinlar uchun yer ochiladi,

nobudgarchilik keskin kamayadi. Mamlakatimizda hosil to'la yetilgan maydonlarda hosilni bir yo'la eng zamonaviy Keys, Klass, Dominator kombaynlarida yig'ib olish joriy etilgan. Har bir mintaqa uchun nav tanlash, ekish muddatlari va me'yorlari:

- har bir mintaqa uchun navlarni to'g'ri tanlash, qurg'oqchilikka mos navlarni mintaqalar bo'yicha joylashtirish;
- ertapishar navlar: CHillaki, Kuma, yesaul;
- o'rtapishar navlar: Bobur, Mars-1, Andijon-4, Jayxun, YAksart, Matonat, Selyanka, Turkiston, Muftalo navlari, Zamin-1, Kroshka, Tanya, Pamyat, Nota, Moskvich, Andijon-2, Asr, Gratsiya, Grom, Sila, Vassa navlari;
- o'rta kechpishar navlar: Krasnodar-99, Polovchanka, Andijon-1, Durdona, Vostorg navlari.

Ekish me'yorlarini belgilash: ekish me'yorlari urug' unuvchanligi hamda 1000 dona don vaznini hisobga olgan xolda belgilanadi

- Ekish muddatiga qarab: erta muddatlarda gektariga 4,5 mln. unuvchan urug' ya'ni 200-210 kg. hisobida belgilanadi.
- o'rta muddatlarda gektariga 5,0 mln. unuvchan urug' ya'ni 220-230 kg. hisobida belgilanadi.
- Kechki muddatlarda gektariga 6,0 mln. unuvchan urug' ya'ni 240-250 kg. hisobida belgilanadi.
- G'o'za qator orasiga ekishda urug' sarfi 10-15 foizga oshirish tavsiya etiladi.

Quyidagi jadvallarda Respublika viloyatlarida bug'doy etishtirishni mintaqalar kesimida joylashtirish va serhosil navlarini tanlash bo'yicha takliflar keltirilgan. Takliflar O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv vazirligi mutahassislari tomonidan ishlab chiqilgan.

8-ladval**Bug'doy navlarini biologik xususiyatlaridan kelib chiqib mintaqalar kesimida joylashitirish**

№	Mintaqalar	Ekilayotgan navlar	Tavsiya etilayotgan navlar
1	Qoraqalpog'iston, Xorazm	Krasnodar 99, Tanya, Kroshka, Polovchanka, Nota, Pamyat.	Turkiston, YAKsart, Bo'zqal'a.
2	Andijon, Namangan, Farg'ona	Krasnodar 99, Tanya, Kroshka, CHillaki, Jayxun,	Grom, Matonat, Saidaziz
3	Surxondaryo, Qashqadaryo	Krasnodar 99, Tanya, Kroshka, CHillaki, Jayxun, Moskvich	YAKsart, Sezan, Turkiston, Berdan, Fortuna, Do'stlik.
4	Toshkent, Jizzax, Sirdaryo	Krasnodar 99, Tanya, Intensiv, Bobur, CHillaki, Do'stlik, Kuma, yesaul, Zamin 1.	Saidaziz, YAKsart, Turkiston, Grom, Favorit, Saratov 69, NS 40C.
5	Buxoro, Navoiy, Samarqand	Nikoniya, Starshina, Krasnodar 99, Tanya, Kroshka, CHillaki, Polovchanka.	Turkiston, YAKsart, Nikoniya, Do'stlik.

Manba: Andijon viloyatida 2016 yilda bug'doy etishtirish texnologiyalarni qo'llash bo'yicha tavsiyalar. O'zbekiston respublikasi qishloq va suv vazirligi. 2015y.

9-jadval**Ekin me'yori**

1000 dona donning vazni, gr.	Gektariga 3 mln yoki 1 kv m. 300 dona urug'	Gektariga 4 mln yoki 1 kv m. 400 dona urug'	Gektariga 5 mln yoki 1 kv m. 500 dona urug'	Gektariga 6 mln yoki 1 kv m. 600 dona urug'
38	114	152	190	228
39	117	156	195	234
40	120	160	200	240
41	123	164	205	246
42	126	168	210	252
43	129	172	215	258
44	132	176	220	264
45	135	180	225	270
46	138	184	230	276
47	141	188	235	282
48	144	192	240	288
49	147	196	245	294
50	150	200	250	300

Manba: Andijon viloyatida 2016 yilda bug'doy etishtirish texnologiyalarni qo'llash bo'yicha tavsiyalar. O'zbekiston respublikasi qishloq va suv vazirligi. 2015y.

3.2. Paxtaobod tumanidagi «Karim sayyod fermer xo'jaligida bug'doy yetishtirishda moddiy xarajatlardan samarali foydalanish omillari

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonida mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashning eng muhim omillaridan biri bu ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar xamda bajariladigan ish va xizmatlarni tannarxini pasaytirishdir. Mazkur masalani xal etishda eng avvalo xar bir xo'jalikda amalga oshirilayotgan xarajatlarni chuqur taxlil etib shu asosda xarajatlarni kamaytirish omillarini aniqlash talab etiladi. Amalga oshirilayotgan va oshirilishi lozim bo'lgan xarajatlarni iqtisodiy elementlar bo'yicha guruxlashtirish natijasida mehnat xarajatlari uchun berilgan ish xaqini va uning tarkibini, sarflangan moddiy (material) xarajatlar, turli maqsadlarga sarflangan pul xarajatlari (ob'ektlari bo'yicha) summasini aniqlab, ularni chuqur taxlil qilish imkoniyati yaratiladi.

Sarflanayotgan xarajatlarni taxlil etish jarayonida ularning qanchasi mahsulot yetishtirishga oid texnologik jarayonlar bo'yicha sarflanganligiga ham aloxida e'tibor beriladi. Bundan maqsad–fan-texnika, texnologiya yangiliklarini ishlab chiqarishning u yoki bu jarayoniga tadbiq etish natijasida xarajatlarni tejash imkoniyatini aniqlashdir.


Qishloq xo'jaligida sarflangan xarajatlar o'sishi bilan yetishtirilgan mahsulotlar tannarxlarining o'sishi o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. SHuning uchun xam xar bir so'mni oqilona, maqsadga muvofiq sarflashga xarakat qilish, ya'ni material, pul xamda mehnat xarajatlarini tejashga, shu orqali yetishtiriladigan mahsulotlarning, bajariladigan ish va xizmatlarning tannarxlarini pasaytirishga erishish lozim.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va ko'rsatilayotgan xizmatlar tannarxini pasaytirish omillarini aniqlashda tannarxga birlamchi ta'sir etuvchi omil xisoblangan xarajatlarni shakllanishi muhim ahamiyaga egadir. Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish harajatlarini tashkil

topishini hisoblash va ularni guruhlarga bo'lish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablari asosida amalga oshiriladi. Mazkur Nizom qishloq xo'jaligida buxgalteriya hisobini yurgizishda va soliqqa tortiladigan bazani aniqlashda harajatlarni hisoblab chiqishda paydo bo'ladigan tafovutlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan bo'lib, xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatining rentabelligini va bozor raqobatbardoshligini aniqlash maqsadida xo'jalik faoliyatining barcha harajatlarini hisoblab chiqish, moliyaviy natijalarni aniqlash va ular to'g'risida to'liq va aniq axborotni shakllantirishning asosini yaratadi. Qishloq xo'jaligida faoliyat yuritayotgan fermer xo'jaliklarida amalga oshirilayotgan xarajatlar yuqorida keltirilgan Nizom talablari asosida

1-rasm

Mamlakatimiz iqtisodiyotida tannarxni pasaytirishning asosiy yo'nalishlari



Mabaa: A.Abdug'aniev. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti (darslik). Toshkent, 2010.

xisobga olinadi,shu asosda faoliyat yuritayotgan xar bir fermer xo'jaligi xarajatlardan oqilona va samarali foydalanish asosida tannarxni pasaytirish yo'nalishlarini aniq belgilab olishi zarur bo'ladi. Buning uchun har bir fermer xo'jaligi o'z faoliyat yo'nalishi bo'yicha tannarxni pasaytirish omillari to'g'risida

keng va chuqur tasavvurga ega bo'lishi lozim. Umumiy holda, mamlakatimiz korxonalarida tannarxni pasaytirishning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir (9- rasm) .

Qishloq xo'jaligida sarflangan xarajatlarni o'sishi bilan yetishtirilgan mahsulotlar tannarxlarining o'sishi o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Mahsulot tannarxini pasaytirish xar qanday sharoitda va xar qanday ishlab chiqarish uchun konuniy kuchga ega bo'lmog'i shart. Aks xolda tovar ishlab chiqarish xajmini ko'paytirish imkoniyatiga ega bo'lish mumkin emas. Mahsulot tannarxini pasaytirishga ta'sir etuvchi omillarni quyidagicha guruxlashtirish mumkin:

-yalpi mahsulot miqdorini ko'paytirishga ijobiy ta'sir etuvchi omillar. Bularga xosildorlikni oshirish, ekin maydonlari tarkibini belgilash, yetishtirilayotgan mahsulotning to'la-to'kis saqlash va x .k.

-ishlab chiqarish xarajatlarini tejash bilan bog'liq bo'lgan omillar. Bularga ishlab chiqarishda yerdan va asosiy fondlardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish va x.k.

-ishlab chiqarishni tashkil etish bilan bog'liq omillar. Bularga moddiy manfaatdorlik, ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish, ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan omillar kiradi.

SHuningdek, qishloq xo'jalik mahsulotlari tannarxini pasaytirish uchun quyidagilarga e'tibor berish kerak deb hisoblaymiz:

- dexkonchilik va chorvachilik tarmoqlarida mavjud bo'lgan barcha ishlab chiqarish vositalaridan yil davomida tadbirkorlik bilan okilona, samarali foydalanib, barcha agrotexnologik tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlashga;

- ekinlarning tezpishar, kam suv talab qiladigan samarali navlarini yaratish asosidagi urug'chilikni yanada rivojlantirish, chorva xayvonlarining maxsuldor zotlarini ko'paytirishni ta'minlash; qishloq xo'jaligida ishlatiladigan sanoat

korxonalarining narxlari bilan qishloq xo'jalik mahsulotlari o'rtasidagi nomutanosiblikni qisqartirish

- qishloq xo'jaligida ishlatiladigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqariladigan resurslarning narxlari bilan qishloq xo'jalik mahsulotlariga o'rnatilgan baholar o'rtasidagi nomutanosiblikni bosqichma-bosqich qisqartirish;

- mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini tejaydigan yangi texnika, samarali texnologiyalarni joriy etish natijasida ishlab chiqarish jarayonlarining mexanizatsiyalashtirilganlik, avtomatlashtirilganlik darajasini oshirib, jonli mehnat sarfini qisqartirish;

- irrigatsiya, melioratsiya va ximizatsiya bilan bog'liq bo'lgan masalalarning sifatli va samarali xal bo'lishini ta'minlashga;

- mehnatni tashkil etishning samarali shakllarini va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish;

- ekinlar xosildorligini, chorva xayvonlarining maxsuldorligini oshirishga erishish;

- fermer xo'jaliklarida mehnatni tashkil etishning eng samarali shakllarini va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish;

- qishloq xo'jaligida yetishtirilayotgan mahsulotlar raqobatbar doshligini ta'minlash va xokazo.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, qishloq xo'jalik mahsuloti yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida mahsulot yetishtirish uchun qilingan sarf xarajatlarini qoplanishi va moliyaviy barqarorligining ta'minlanishi shu mahsulotdan olinayotgan daromadga bog'liq bo'lib qolayotir. Lekin, amaldagi tartib qoidalarga muvofiq qishloq xo'jalik korxonalari tomonidan to'lanadigan soliqlar (asosan yagona yer solig'i) mahsulot tannarxiga kiritilmasdan olingan foydadan qoplanadi. Bu nazariy jihatdan to'g'ri bo'lsada (zero, soliq qo'shimcha mahsulotning ijtimoiy shaklidir), dexkonchilikda real xo'jalik yuritish sharoitida bu nazariy asosni qo'llanilishi qator moliyaviy muammolarga sabab bo'lmoqda. SHu jihatdan qishloq xo'jalik mahsuloti yetishtirishga ixtisoslashgan fermer

xo'jaliklarning yakuniy oladigan sof foydasi va umumiy faoliyat rentabelligi ishlab chiqarishni rivojlantirishni ta'min eta olmayapti. Ayrim hollarda esa xo'jaliklarning umumiy faoliyati zarar bilan yakunlanmoqda.

Lekin, olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, fermer xo'jaliklarida birlamchi qishloq xo'jalik maxsulotlari xisoblangan paxta va bug'doy tannarxini pasaytirish asosida samaradorlikni oshirishga va xo'jaliklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga bir qator muammolar o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda:

-birinchidan, fermer xo'jaliklari davlat buyurtmasiga paxta va g'alla yetishtirish bilangina chegaralanib qolmoqdalar va ularning moliyaviy holati shu mahsulotlarni yetishtirish uchun beriladigan bo'nak mablag'lari va ularni davlat buyurtmasiga sotishdan tushumga bog'liq bo'lib qolmoqda;

-ikkinchidan, yetishtirilgan mahsulotni davlat buyurtmasidan ortiqcha qismini xo'jaliklar tomonidan erkin tasarruf etish huquqi amalda berilsa, yetishtirilgan mahsulot davlat buyurtmasiga qat'iy belgilangan baholarda sotilishi bilan birga ularni erkin baholarda ham sotishga erishilsa mahsulot yetishtirishdan ko'radigan daromadlari ortib borgan bo'lar edi;

Bugungi kunda shartnomada belgilangan xajmdan ortiqcha topshirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlari asosan past sortlarga sotilishi hisobiga ularga belgilangan narxlar mahsulot uchun sarflangan xarajatlarni qoplash imkonini bermayotir. SHuning uchun, bizningcha, davlat buyurtmasidan ortiqcha yetishtirilgan mahsulotga tabaqalashtirilgan ustama narx belgilash tizimini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Mazkur muammolarni hal qilishda agrosanoat majmuida kooperatsiya va integratsiya jarayonlarini jadal rivojlantirish talab etiladi. Xususan, bugungi fermerlik harakatini rivojlanishi sharoitida ularni moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlash va servis xizmatlarini ko'rsatuvchi ko'p tarmoqli ta'minot va xizmat ko'rsatish kooperativlarini tuzish ularni resurslar va xizmatlarga bo'lgan talabini sifatli, o'z vaqtida va arzon baholarda qondirish masalasini hal etishga yordam beradi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishda yangi texnologiyalarni qo'llash pirovardida yuqori iqtisodiy samara beradi. Lekin, bugungi kunda aksariyat mahsulot yetishtiruvchilarni iqtisodiy holati katta miqdorda mablag' talab qiladigan yangi texnologiyalarni, jumladan, tomchilatib, yomg'irlatib sug'orish, tomchilatib sug'orish bilan birga mineral o'g'it berish kabi texnologiyalarni joriy etishga imkon bermaydi. Yangi texnologiyalar yuqori pirovard natija berar ekan hamda tuproq va suv ekologiyasini saqlashda muhim ahamiyatga ega bo'lar ekan bu davlat tomonidan bevosita qo'llab-quvvatlanishi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Biz Paxtaobod tumanidagi «Karim sayyod» fermer xo'jaligini iqtisodiy jixatdan barqaror rivojlantirish asosida uning bug'doy yetishtirish bo'yicha iqtisodiy samaradorligini oshirishga oid ma'lumotlarni o'rganish va taxlil etish asosida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Fermer xo'jaligida bug'doy yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirishda ishlab chiqarishni intensivlashtirishga jiddiy e'tibor qaratilgan. Bunda ishlab chiqarish jarayonini kimyolashtirish va mexanizatsiyalashtirishga ko'proq e'tibor qaratilgan. Xususan, 2014 yilda sotib olingan yangi haydov traktori xo'jalikda qo'l mehnatini keskin kamaytirish va ortiqcha moddiy xarajatlarni qisqartirish imkonini bergan, Bu esa o'z navbatida moddiy xarajatlarni tarkibida yoqilg'i moylash va mineral o'g'itlarga sarf xarajatlarni o'sishiga olib kelgan. Mineral o'g'iyar sarfini ortishi esa hosildorlikni oshirishiga sabab bo'lgan.

2. Jami xarajatlarning mutlaq miqdorida moddiy xarajatlar ulushi ushbu davrda 76%dan 60%gacha qisqargan. Bu fermer xo'jaligiga iqtisodiy samaradorlik darajasini keskin ko'tarish imkonini bergan va bu holat rentabellik ko'rsatkichini 20%dan 29%gacha o'sishida namoyon bo'lgan.

3. Kimyoviy usullardan samarali foydalanishga alohida e'tibor berish zarur. Sababi, bug'doy yetishtirishda kimyoviy usullarni samaradorligi yuqori bo'lib, ularni to'g'ri qo'llanilishi katta xarajatlar talab qilinmaydi. Bu fermer xo'jaligida ishlab chiqarish resurslaridan tejab-tergab foydalanish asosida ishlab chiqarish xarajatlari bilan hosildorlik va yalpi mahsulot o'rtasidagi nisbatlarni talab darajasida saqlash imkoniyatini yaratadi.

4. Fermer xo'jaligida ishlab chiqarishni modernizatsiyalashtirish asosida uni iqtisodiy jixatdan barqaror rivojlantirish darajasini yanada oshirish lozim. SHu maqsadda fermer xo'jaligini maxsus dasturini ishlab chiqib barcha ishlarni uni asosida amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

5. Fermer xo'jaligida paxta va g'alla yetishtirishning rentabellik darajasini optimal darajaga, ya'ni mos holda 50 foizga ko'tarish chora-tadbirlarini ko'rish lozim.

6. Fermer xo'jaligida samarali texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish asosida g'alla hosildorligini 70 tsentnerga yetkazish zarur.

7. Fermer xo'jaligini iqtisodiy jixatdan barqaror rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligini oshirilishi ko'p jihatdan ishlab chiqarish harajatlarining tarkibi yaxshilanishiga ham bog'liqdir. Moddiy harajatlar tarkibiga ekinlar hosildorligiga bevosita ta'sir qiluvchi urug'lik, o'gitlar, yoqilg'i - moylash, ish va xizmatlar hisobga olinib, ularning hissasini optimal darajada ushlab turishga e'tiborni kuchaytirish zarur.

8. Modernizatsiyalash jarayonini amalga oshirish uchun fermer xo'jaligida xodimlarning ma'lumotini, kasbiy tayyorgarligini va ko'nikmasini oshirishga alohida e'tibor berish lozim. Sababi, fermer xo'jaligida samarali texnologiyalardan foydalanish darajasi ko'p jihatdan ularga bog'liqdir:

- xo'jalikda mahsulot ishlab chiqarishda ilg'or texnika va texnologiyalardan foydalanish ishlarni mexanizatsiyalash darajasini oshirish va kompleks mexanizatsiyalashga erishish lozim.
- mahsulot yetishtirishda resurslarni tejashga alohida e'tibor qaratish kerak.
- noishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish zarur.
- xo'jalikda ekinlar hosildorligini oshirishni ichki imkoniyatlarini ishga solish kerak. Bunda xo'jalikni tabiiy iqlim relef sharoitlariga to'g'ri keladigan, ekinlarning serhosil navlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.
- ekin maydonlarining oqilona tarkibini shakllantirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T. O'zbekiston 2003 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining yer Kodeksi. O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to'grisidagi qonun hujjatlari. 1-kitob. – T.: 1999.
3. O'zbekiston Respublikasining «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonuni. «Xalq so'zi». 2004 yil 27 avgust.
4. O'zbekiston Respublikasining Davlat yer kadastri to'grisidagi qonuni
5. O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to'grisidagi qonun hujjatlari. 3-kitob. – T.: 1999
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 22 oktyabrdagi “O'zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-4478 farmoni.
7. Vazirlar Maxkamasining 2013 yil 31 yanvardagi “Fermer xo'jaligi yer maydonini maqbullashtirish va uni tugatish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi qarori.
8. Hosildorligi past bo'lgan yerlarda davlat extiyojlari uchun paxta xom ashyosi yetishtiruvchi kishlok xujaligi korxonalarini moliyaviy qo'llab-kuvvatlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash xakida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining karori. Toshkent sh., 2012 yil 11 aprel, 106-son.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 24 martdagi PF-3226 sonli farmoni «Qishloqda islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida». Xalq so'zi. 2003 yil 25 mart
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 6 oktyabrdagi PF-3077-son «Fermer xo'jaliklari faoliyatini yuritishda yer uchastkalari miqdorini maqbullashtirish choralari ko'rish yuzasidan takliflar ishlab chiqish bo'yicha maxsus komissiya tashkil etish to'g'risida»gi Farmoyishi.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 22 oktyabrdagi "Fermer xo'jaliklari tasarrufidagi yer uchastkalari maydonlarini yanada maqbullashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-3287 sonli Farmoyishi.

12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qarorida tasdiqlangan «Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish harajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom».
13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish va majburiyatlarning bajarilishi uchun tomonlarning javobgarligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» qarori (2003 yil 4 sentyabr 383-son).
14. I.A.Karimov «O'zbekistonning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari T., O'zbekiston. 1995 yil
15. I.A.Karimov «O'zbekiston buyuk kelajak sari» T., O'zbekiston, 1998.
16. I.A.Karimov. Barqaror taraqqiyotga erish ustivor vazifa. T O'zbekiston 1998.
17. I.A.Karimov «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» T.: O'zbekiston. 1995 yil
18. I.A.Karimov «Dehqonchilik taraqqiyoti – to'kin hayot manbai» T.: O'zbekiston. 1998 yil
19. I.A.Karimov «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartarf etishning yo'llari va choralari». T.: O'zbekiston. 2009 yil
20. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2011 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2012 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muxim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasi majlisidagi ma'ruzasi «2012 yil – Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi» Xalq so'zi 20.01.2012.
21. Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qonun va me'yoriy xujjatlar to'plami. (1-2 qism). Toshkent 1998 yil.
22. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2015 yilning asosiy yakunlari va 2016 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “2015 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi” mavzusidagi ma'ruzasini. – T.: Xalq so'zi. - 2016.

23. O.Zokirov, A.Abdullaev, SH.Zokirov. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. (o'quv qo'llanma). Andijon, 2002.
24. A.Abdug'aniev. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti (darslik). Toshkent, 2010.
25. A.Ismoilov, O.Murtazaeva. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti (darslik). T.: 2002.
26. M.SHarifxo'jaev, YO.Abdullaev. Menejment. – T.: «Moliya», 2003.
27. B.Salimov, K.Hamdamiyov. Dexqon va fermer xo'jaliklari iqtisodiyoti (o'quv qo'llanma) Toshkent 2004 yil. y.
28. Bakett.M. Fermer xo'jaligini tashkil etish va boshqarish (darslik) Toshkent «Mexnat» 1998 yil.
29. O.Olimjonov va b. Fermerlik faoliyatining huquqiy va moliyaviy asoslari. T. «Universitet», 2005.
30. O'.P.Umrzaqov va b. Fermer xo'jaligi iqtisodiyoti. – T.: "Iqtisod-moliya" 2007.
31. B.Salimov va b. Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodiyoti. – T.:TDIU, 2004
32. R.Xakimov va b. Agrosanoat majmui iqtisodiyoti. – T.:TDIU, 2004
33. Paxtaobod tumanidagi «Karim sayyod» fermer xo'jaligining 2013-2015 yillardagi biznes rejalari, yillik hisobotlari, shartnomalari hamda boshqa ma'lumotlari.
34. Kuzgi bug'doy don hosiliga xisoblangan o'g'it me'yori ta'siri. AQXI. 2012y. Agronomiya fakulteti. Dotsent O.Mirzaev va talaba E.Artiqov. BMI.
35. Qishloq xo'jalik ekinlari yetishtirishda innovatsion texnologiyalar. Qo'llanma. /Adilov M.M, Atabaeva X.N, Xudoykulov J.B, G'ulomov B, Qodirxo'jaev O, Norkulov U, Normuratov I, YAkubov M, Janakova D, Akramov U, G'ulomov A.-T.: 2013 y. 60 b.
36. Andijon viloyatida 2016 yilda bug'doy yetishtirish texnologiyalarni qo'llash bo'yicha tavsiyalar. O'zbekiston respublikasi qishloq va suv vazirligi. 2015y.
37. Kuzgi bug'doy don hosiliga xisoblangan o'g'it me'yori ta'siri. AQXI. 2012y. Agronomiya fakulteti. Dotsent O.Mirzaev va talaba E.Artiqov. BMI.

Internet manbalari

1. www.msu.ru. – Moskva Davlat Universiteti.Iqtisodiyot fakulteti.

2. www.rsute.ru. - G. Plexanov nomidagi Moskva iqtisodiyot akademiyasi.
3. www.tsue.uz.- Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
4. www.osu.edu.- Universitet Oxayo, iqtisodiyot fakulteti (AQSH)
5. www.umde.edu.- Merilend Universiteti, iqtisodiyot fakulteti (AQSH)
6. www.timacad.ru.-K.A.Timiryazeva nomidagi Moskva davlat qishloq xo'jaligi akademiyasi, iqtisodiyot fakulteti.
7. [.http://www.statistics.uz](http://www.statistics.uz).- O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi ma'lumotlari
8. www.pravo.uz. Uzbekistan respublikasi qonunchilik bazasi.
9. www.ziyonet.uz – O'zbekiston OO'MTV qoshidagi elektron kutubxona.
10. www.lex.uz -Qonunlar va me'yoriy xujjatlar milliy bazasi.